
So‘zboshi

“AHA! Matematika” mashq daftari darslikning ajralmas qismi hisoblanadi. Mashq daftari, asosan, uyda shug‘ullanishga mo‘ljallangan. Undagi turli xil amaliy mashq va masalalar, hayotiy topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Mashq daftari yordamida o‘quvchilar yangi matematik bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash bilan birga, muammoli vaziyatlarda qo‘l keladigan mantiqiy fikrlash va mulohaza yuritish kabi hayotiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladi.

Matematika olamiga sayohatingiz qiziqarli va maroqli bo‘lsin!

Eslang

rukni o‘quvchilarni avvalgi mavzularda o‘rganilgan bilimlarni eslashga yo‘naltiradi.




Topshiriq (D1 / D2 / D3)

1) D1 – birinchi darajali topshiriqlar o‘quvchilar mavzuga oid asosiy tushunchalarni qanday o‘zlashtirganini baholaydi va ularga tayanch ko‘nikmalarni egallashda yordam beradi.


2) D2 – ikkinchi darajali topshiriqlar o‘quvchilar mavzuga oid o‘rtacha murakkablikdagi tushunchalarni qanday o‘zlashtirganini baholaydi va ularga yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

3) D3 – uchinchi darajali topshiriqlar o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalarni qanchalik chuqur o‘zlashtirganini baholaydi hamda ulardagi ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini nostandart, murakkab matematik masalalarni yechish orqali rivojlantiradi.



Amaliy topshiriq

rukni o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini namoyish qilish va o‘z-o‘zini baholash imkonini beradi.



Ism: Sinf: Sana:

Amaliy topshiriq

Bayroq ustunining balandligini taqriban toping.

Guruhlarda ishlang.
Maktabingizdagi bayroq ustuni soyasining uzunligini o'lchov tasmasi yordamida o'lchang.
So'ng guruhingizdagi biror o'quvchi bo'yini va uning soyasi uzunligini o'lchang.

1 Barcha o'lchashlarni birlar xonasigacha yaxlitlab, javobini bo'sh joylarga yozing.

a) O'quvchining bo'yi = _____ cm

Uning soyasi uzunligi = _____ cm

b) Bayroq ustuni soyasining uzunligi = _____ cm


2 Bayroq ustuni balandligini taqriban qanday topishni muhokama qiling. O'z usulingizni taklif qiling.

Bayroq ustunining taqribiy balandligi _____ cm ga teng.

107

Matematika kundaligi

o‘quvchilarni matematikani o‘rganish jarayoni haqida fikrlashga undaydi.



Matematika kundaligi

Javobi $2x - 5$ ifoda bo'lgan matnli masala tuzing.

Namuna


a) Har bir qatorda x tadan ikki qator stul bor edi. Ulardan 5 ta stul olib tashlandi. Qancha stul qoldi?
Javobni x orqali ifodalang.

b) Jamila opa 2 quti tuxum sotib oldi. Har bir qutida x tadan tuxum bor. U Sohibaga 5 ta tuxum berdi. Jamila opada nechta tuxum qoldi?
Javobni x orqali ifodalang.

32

Muammoli topshiriq

rukni o‘quvchilarni to‘rt bosqichli fikrlash jarayoni asosida mulohaza yuritishga va ijodiy yondashishga undaydi.



Muammoli topshiriq

Rasmda radiusi 7 cm va bir-biridan 7,18 m masofada joylashgan ikkita bir xil g'ildirak tasvirlangan. Ular bir-biriga qarab harakatlanadi. Har bir g'ildirakning bir marta to'liq aylanishiga 2 sekund vaqt ketadi. Agar ikkala g'ildirak ham bir xil tezlikda aylanishni boshlasa, ular qancha vaqtdan keyin to'qnashadi ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling)?

7 cm 7 cm 7,18 m

- Masalani tushundingizmi?
- Reja tuzing.
- Masalani yeching.
- Javobni tekshirishni unutmang.

Reja


Yechish

196

Bilimingizni tekshiring!

rukni o‘quvchilarga egallagan bilim va ko‘nikmalarni takrorlash hamda mustahkamlash imkonini beradi.

Hisoblashlarni bajarishda kalkulyatordan foydalanish mumkin.



Ism: Sinf: Sana:

2-sinov varaqasi

Quyidagi topshiriqlarning batafsil yechimini keltiring va javobni ko'rsatilgan joyga yozing.

1 Novvoyxonadan non sotib olgan mijozning har 150 000 so'mlik xaridiga yana 2 ta non bepul beriladi. Hamid aka 26 ta bepul non oldi. U qancha pul sarflagan?

Javob: _____

2 To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 14 cm bo'lib, perimetri $3y$ cm ga teng. To'g'ri to'rtburchakning enini y orqali ifodalang.

Javob: _____ cm

3 To'g'ri to'rtburchak shaklidagi katta qog'ozning o'lchamlari 30 cm va 20 cm. Qog'ozdan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi 3 ta bo'lak kesib olindi. Qog'ozning qolgan bo'lagi perimetrini toping.

30 cm 20 cm

Javob: _____ cm

215

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 4 29/08/24 22:37

MUNDARIJA

1 ALGEBRA 1

Eslang 1
Algebraik ifodalar 3
Algebraik ifodalarni soddalashtirish 9
Algebraik ifodalarning qiymatini topish 11
Tenglamalarni yechish 19
Amaliy topshiriq 29
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 30
Matematika kundaligi 32

2 ODDIY KASRLAR 33

Eslang 33
To‘g‘ri kasrni natural songa bo‘lish 35
Natural sonni to‘g‘ri kasrga bo‘lish 41
To‘g‘ri kasrni to‘g‘ri kasrga bo‘lish 49
Matnli masalalar 55
Amaliy topshiriq 63
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 64
Matematika kundaligi 66

I TAKRORLASH 67

3 NISBATLAR 73

Eslang 73
Nisbat va kasr 77
Matnli masalalar 81
Uch miqdor nisbati 87
O‘zgaruvchan nisbatlar 95
Amaliy topshiriq 107
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 108
Matematika kundaligi 110

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 5 29/08/24 22:37

4 FOIZLAR 111

Eslang 111
Foizi va qismiga ko‘ra sonning o‘zini topish 115
O‘sish foizi va kamayish foizini topish 123
Matnli masalalar 127
Amaliy topshiriq 139
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 140
Matematika kundaligi 142

II TAKRORLASH 143

5 GEOMETRIK SHAKLLARDAGI BURCHAKLAR 151

Eslang 151
Geometrik shakllardagi noma’lum burchaklarni topish 155
Amaliy topshiriq 167
Matematika kundaligi 168

6 DOIRA VA AYLANA 169

Doira va aylana elementlari 169
Aylananing uzunligi 171
Yarim va chorak doira perimetri 177
Doiraning yuzi 183
Yarim va chorak doira yuzi 185
Murakkab shakllarning yuzi va perimetri 187
Amaliy topshiriq 195
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 196
Matematika kundaligi 198

III TAKRORLASH 199

BILIMINGIZNI TEKSHIRING 205

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 6 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

1 Algebra


Eslang 

Tenglamalardagi noma’lumni topish

1 ★ o‘rnidagi sonni toping.


a) $5 + ★ = 18$

$★ =$



b) $★ + 9 = 20$

$★ =$




c) $★ - 10 = 8$

$★ =$



d) $17 - ★ = 12$

$★ =$



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 1 29/08/24 22:37

2 o‘rnidagi sonni toping.

a)

3 × = 12	× 3 = 12	12 ÷ = 3	12 ÷ 3 =

ning qiymati .

b)

× 6 = 54	54 ÷ 6 =	54 ÷ = 6	6 × = 54

ning qiymati .

c)

72 ÷ 9 =	9 × = 72	× 9 = 72	72 ÷ = 9

ning qiymati .

3 Tushirib qoldirilgan sonni yozing.

a) 12 + = 16	b) – 14 = 6
c) × 10 = 80	d) 4 × = 32
e) ÷ 7 = 5	f) 42 ÷ = 7

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 2 29/08/24 22:37


Ism: Sinf: Sana:

Algebraik ifodalar

D1 1-topshiriq

1 Qutida dastlab *k* ta sharcha bor edi. Qutiga yana bir nechta sharcha solindi.

Jadvalga sharchalar sonini bildiruvchi algebraik ifodalarni yozing.



Qutidagi sharchalar soni	
Dastlabki sharchalar soni	
1 ta sharcha solindi	
4 ta sharcha solindi	
10 ta sharcha solindi	

2 Idishda dastlab *w* ta tugma bor edi. Idishdan bir nechta tugma olib tashlandi.

Jadvalga tugmalar sonini bildiruvchi algebraik ifodalarni yozing.




Idishdagi tugmalar soni	
Dastlabki tugmalar soni	
1 ta tugma olib tashlandi	
3 ta tugma olib tashlandi	
9 ta tugma olib tashlandi	

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 3 29/08/24 22:37

3 Tushirib qoldirilgan ifodani yozing.


Xadichaning bo‘yini x orqali ifodalang.



Xadichaning bo‘yi _____ m.


4 Quyidagilarning har biri uchun algebraik ifoda yozing.

a) Mahmudda x ta daftar bor edi. Ashraf unga yana 10 ta daftar berdi. Mahmudda jami nechta daftar bo‘ldi?




Mahmudda jami _____ ta daftar bo‘ldi.

b) Chelakda y ℓ suv bor edi. Aziza opa 4 ℓ suvni ishlatdi. Chelakda qancha suv qoldi?



Chelakda _____ ℓ suv qoldi.

c) Ilyosning bo‘yi r cm. Yusufning bo‘yi Ilyosning bo‘yidan 20 cm uzun. Yusufning bo‘yi necha cm?




Yusufning bo‘yi _____ cm.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 4 29/08/24 22:37

5 Tushirib qoldirilgan ifodani yozing.

a) q ta quti bor. Har bir qutida 6 tadan yogurt bor. Jami yogurtlar sonini q orqali ifodalang.



q ta quti

Jami yogurtlar soni _____.

b) Idishda k ℓ suv bor. Idishdagi suv 5 ta bir xil stakanga teng qilib quyildi. Har bir stakandagi suv miqdorini k orqali ifodalang.




k ℓ

Har bir stakandagi suv miqdori _____ ℓ.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 5 29/08/24 22:37


6 Quyidagilarning har biri uchun algebraik ifoda yozing.

a) Kamolaning z so‘m puli bor. Dononing puli Kamolaning pulidan 3 marta ko‘p. Dononing qancha puli bor?




Donoda _____ so‘m pul bor.

b) Fotima opada 5 quti tugma bor. Har bir qutida p tadan tugma bor. Fotima opada jami nechta tugma bor?



Fotima opada jami _____ ta tugma bor.

c) q so‘m pul 3 ta bolaga teng taqsimlandi. Har bir bola qanchadan pul oldi?



Har bir bola _____ so‘mdan pul oldi.

7 Har bir jumla uchun algebraik ifoda yozing.

Jumla	Algebraik ifoda
a) 35 ga c ni qo‘shing.	
b) 18 dan p ni ayiring.	
c) 12 va y ni ko‘paytiring.	
d) x ni 4 ga bo‘ling.	
e) 4 va $\frac{h}{2}$ ning yig‘indisi.	
f) z ning uch baravari.	

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 6 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D2 2-topshiriq

Quyidagilarning har biri uchun algebraik ifoda yozing.

1 Jamila stol tennisi raketkasini 150 000 so‘mga, 4 ta tennis to‘pining har birini esa q so‘mdan sotib oldi.

a) U 4 ta tennis to‘pi uchun qancha pul to‘ladi?
b) U stol tennisi raketkasi va tennis to‘plari uchun jami qancha pul to‘ladi?

2 Akmal, Sardor va Feruz o‘rtasida n ta qalam teng taqsimlandi. Akmal o‘zining 6 ta qalamini yo‘qotib qo‘ydi.

a) Akmalga nechta qalam berilgan?
b) Akmalda nechta qalam qoldi?

3 Dono 25 000 so‘m tejab qoldi. Lobar esa Donodan r so‘m ko‘p tejadi.

a) Lobar qancha tejagan?
b) Ular jami qancha tejashgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 7 29/08/24 22:37


4 Tarvuzning massasi z kg. Qovoq tarvuzdan 2 baravar og‘ir. Handalak esa qovoqdan 3 kg yengil.

a) Qovoqning massasi qancha?
b) Handalakning massasi qancha?

5 Sohibada qizil va yashil tasma bor. Qizil tasmaning uzunligi y cm. Yashil tasma qizil tasmadan 15 cm qisqa.

a) Yashil tasma uzunligi qancha?
b) Ikkala tasmaning umumiy uzunligi qancha?

6 To‘g‘ri to‘rtburchakning o‘lchamlari 8 cm va a cm. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini toping.



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 8 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

Algebraik ifodalarni soddalashtirish

D1 3-topshiriq

1 Quyidagi algebraik ifodalarni soddalashtiring.

a) $p+p+p=$	b) $q+q-q=$
c) $7n+3n=$	d) $12k-11k=$
e) $10r+12r+4r=$	f) $20g+6g-8g=$
g) $6h+5h-8h=$	h) $4t-t-t+6t=$
i) $12y+3y-2y-4y=$	j) $20z-4z+5z-6z=$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 9 29/08/24 22:37

2 Quyidagi algebraik ifodalarni soddalashtiring.

a) $3a + 8a + 5 =$	b) $10x + 2x + 11 =$
c) $y - 7 + 3y =$	d) $2 + j + 7 + 7j =$
e) $12q - 5q - 6 + 6q =$	f) $4 + 15m + 6 - 4m =$
g) $15k - 1 + 8k - 20k =$	h) $20p - 15p + 3 - 3p =$
i) $25s + 10 - 4s + 6s - 8 =$	j) $15 + 36v - 4v - 8v - 10 =$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 10 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

Algebraik ifodalarning qiymatini topish

D1 4-topshiriq

1 z ning har bir berilgan qiymati uchun algebraik ifodalarning qiymatini toping.

Algebraik ifoda	$z = 5$	$z = 7$
$z + 10$		
$z - 5$		
$2z$		
$\frac{z}{5}$		

2 $a = 4$ bo‘lganda har bir ifodaning qiymatini toping.

a) $4a + 3 =$	b) $17 + 12a =$
c) $3a - 2 =$	d) $10a - 13 =$
e) $2a \div 5 = \frac{2a}{5}$	f) $\frac{7a}{6} =$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 11 29/08/24 22:37

3 $b = 10$ bo‘lganda har bir ifodaning qiymatini toping.

a) $\frac{b+6}{2} =$	b) $\frac{5b+12}{4} =$
c) $\frac{b-2}{6} =$	d) $\frac{3b-10}{5} =$
e) $\frac{6+5b}{8} =$	f) $\frac{50-3b}{7} =$
g) $\frac{7+4+4b}{3} =$	h) $\frac{10+5b-6}{2} =$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 12 29/08/24 22:37

4 Har bir ifodani soddalashtiring va uning $d = 8$ bo‘lgandagi qiymatini toping.

a) $2d + 4d + 9 =$	b) $6d + 12 + 3d =$
c) $10d - 2d + 7 =$	d) $9d - 14 - 5d =$

5 Har bir ifodani soddalashtiring va uning $g = 12$ bo‘lgandagi qiymatini toping.

a) $8g - 25 - 2g$	b) $20 + 10g - 6g$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 13 29/08/24 22:37

6 $7f + 9 - 3f - 6$ ni soddalashtiring va uning quyidagi shartlardagi qiymatini toping.

a) $f = 0$ b) $f = 1$

$f = 0$	$f = 1$

7 $10 + 6q - 3q + 8$ ni soddalashtiring va uning quyidagi shartlardagi qiymatini toping.

a) $q = 2$ b) $q = 10$

$q = 2$	$q = 10$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 14 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 5-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Ozoda xolada 5*m* kg shakar bor edi. Keyin u yana har biri *m* kg dan bo‘lgan 3 paket shakar sotib oldi.

a) Ozoda xoladagi jami shakar massasini *m* orqali ifodalang.
b) *m* = 2 bo‘lganda Ozoda xolada jami necha kilogramm shakar borligini toping.

2 Maryam narxi 9000 so‘mdan bo‘lgan *q* dona shokolad sotib oldi. U 1 ta 50 000 so‘mlik qog‘oz pul bilan to‘lov qildi.

a) Maryam qancha qaytim olganini *q* orqali ifodalang.
b) Agar *q* = 5 bo‘lsa, Maryam qancha qaytim oladi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 15 29/08/24 22:37

3 Do‘konda har bir handalakning narxi k so‘m. Tarvuz handalakdan 3000 so‘mga qimmat. Aziza opa uchta handalak va bitta tarvuz sotib oldi.

a) Poliz ekinlarining umumiy narxini k orqali ifodalang.

b) Agar $k = 6000$ bo‘lsa, Aziza opa poliz ekinlari uchun jami qancha pul to‘lagan?

4 Dilshod hozir p yoshda. U akasidan 4 yosh kichik.

a) 5 yildan keyin uning akasi necha yoshda bo‘ladi?

b) Agar $p = 10$ bo‘lsa, uning akasi 5 yildan so‘ng necha yoshda bo‘ladi?


81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 16 29/08/24 22:37

5 Shohjahon aka galstuk uchun v so‘m, ko‘ylak uchun esa galstukka qaraganda ikki baravar ko‘p pul sarfladi. U 20 000 so‘mga kamar ham sotib oldi.

a) Shohjahon aka sarflagan jami pulni v orqali ifodalang.
b) $v = 25\,000$ bo‘lsa, Shohjahon aka jami qancha pul sarflagan?

6 Teng yonli uchburchakning tomonlari uzunligi d cm, d cm va $(d + 2)$ cm.

a) Uchburchakning perimetrini d orqali ifodalang.
b) $d = 12$ bo‘lsa, uchburchakning perimetrini toping.



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 17 29/08/24 22:37

7 Ko‘ylakning narxi *a* so‘m. Yubkaning narxi ko‘ylak narxining yarmiga teng. Hamyon esa yubkadan 5000 so‘m arzon.

a) Hamyoning narxini *a* orqali ifodalang.
b) Agar ko‘ylak narxi 40 000 so‘m bo‘lsa, hamyonning narxi qancha?

8 Halima buvi 100 ta pechenye pishirdi. U qo‘shnisiga *w* ta pechenye berdi va qolganlarini 4 ta qutiga teng taqsimladi.

a) Har bir qutida nechta pechenye borligini *w* orqali ifodalang.
b) Agar $w = 40$ bo‘lsa, har bir qutidagi pechenyelarning soni qancha?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 18 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

Tenglamalarni yechish

D1 6-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Hanifada x so‘m pul bor. Mubinada esa Hanifadagidan 10 000 so‘m ko‘p pul bor.

a) Mubinada qancha pul borligini x orqali ifodalang.

b) Agar Mubinada 28 000 so‘m bo‘lsa, Hanifada qancha pul bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 19 29/08/24 22:37

2 Olimjonda *y* ta koptok bor. Akmalda esa Olimjondagidan 4 marta ko‘p koptok bor.

a) Akmalda qancha koptok borligini *y* orqali ifodalang.

b) Agar Akmalda 12 ta koptok bo‘lsa, Olimjonda nechta koptok bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 20 29/08/24 22:37

3 Hilolada *g* ta pochta markasi bor. Donoda esa 5*g* ta pochta markasi bor. Ularda jami 48 ta pochta markasi bor. Hilolada nechta pochta markasi bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 21 29/08/24 22:37

4 Aziza opada 2*b* dona tuxum bor edi. U *b* tasini ishlatdi va unda 22 dona tuxum qoldi. Dastlab Aziza opada necha dona tuxum bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 22 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 7-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Kinoteatrda 273 ta tomoshabin bo‘lib, bolalar soni katta yoshlilar sonidan 85 taga ko‘p. Kinoteatrda necha nafar bola bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 23 29/08/24 22:37

2 3 ta sonning yig‘indisi 33 ga teng. Ikkinchi son birinchi sondan 2 taga ko‘p. Uchinchi son esa ikkinchi sondan 2 taga ko‘p. Eng kichik sonni toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 24 29/08/24 22:37

3 Sonni o‘zidan 3 marta katta boshqa bir songa qo‘shganda yig‘indi 60 ga teng bo‘ldi. Bu qo‘shiluvchilarni toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 25 29/08/24 22:37

4 Alisherda q ta, Behruzda Alisherga qaraganda 4 ta ko‘p, Charosda esa Behruzga qaraganda 2 ta ko‘p stiker bor. Bolalardagi jami stikerlar soni 70 ta. Alisherdagi stikerlar sonini toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 26 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 8-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Jasur aka Temur akadan 9 yosh katta. 4 yildan keyin ularning yoshi yig‘indisi 91 ga teng bo‘ladi.

Temur aka hozir necha yoshda?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 27 29/08/24 22:37

2 Botir akaning yoshi o‘g‘lining yoshidan 3 marta katta. 8 yildan keyin ularning yoshi yig‘indisi 68 ga teng bo‘ladi. 8 yildan so‘ng Botir akaning o‘g‘li necha yoshda bo‘ladi?


81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 28 29/08/24 22:37

Ism: _____ **Sinf:** _____ **Sana:** _____

Amaliy topshiriq


Tenglamani yechish uchun pallali tarozidan foydalaning.

Pallali tarozi va toshlar yordamida $x + 3 = 8$ tenglama tasvirlangan.




Ikkita qadamda x ning qiymatini toping.

1-qadam



2-qadam



a) 1-qadamda tarozining chap pallasidagi _____ birlik toshni olib tashlaymiz.

b) 2-qadamda tarozining o‘ng pallasidagi _____ birlik toshni olib tashlaymiz.

c) x ning qiymatini topamiz.

$x + 3 -$ _____ $= 8 -$ _____

$x =$ _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 29 29/08/24 22:37

Muammoli topshiriq 

2024-yil avgust oyining ba’zi sanalari quyida ko‘rsatilganidek harflar bilan yopilgan. Sanalardan biri esa *y* harfi bilan almashtirilgan. A, B, C va D harflari ortiga yashirilgan sanalarni *y* orqali ifodalang.

2024-yil avgust oyi

Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba
			1	2	3	4
5	6	7	8	A	10	11
12	13	14	B	*y*	C	18
19	20	21	22	D	24	25
26	27	28	29	30	31	

- Masalani tushundingizmi?
- Reja tuzing.
- Masalani yeching.
- Javobni tekshirib ko‘ring.

Reja

Yechish

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 30 29/08/24 22:37

Tekshirish

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 31 29/08/24 22:37

Matematika kundaligi



Javobi $2x - 5$ ifoda bo‘lgan matnli masala tuzing.

Namuna

a) Har bir qatorda x tadan ikki qator stul bor edi. Ulardan 5 ta stul olib tashlandi. Qancha stul qoldi?
Javobni x orqali ifodalang.

b) Jamila opa 2 quti tuxum sotib oldi. Har bir qutida x tadan tuxum bor. U Sohibaga 5 ta tuxum berdi. Jamila opada nechta tuxum qoldi?
Javobni x orqali ifodalang.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 32 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

2 Oddiy kasrlar

Eslang 

Kasrlarni ko‘paytirish. Natural sonlar bo‘linmasi – kasr ko‘rinishida

1 Ifodaning qiymatini toping. Javobni qisqarmas kasr ko‘rinishida yozing.

a) $\frac{2}{5} \times 20 =$	b) $\frac{4}{9} \times 12 =$
c) $\frac{7}{3} \times 6 =$	d) $\frac{15}{8} \times 48 =$
e) $\frac{3}{10} \times \frac{2}{5} =$	f) $\frac{3}{8} \times \frac{2}{9} =$
g) $\frac{14}{5} \times \frac{5}{6} =$	h) $\frac{9}{8} \times \frac{11}{6} =$
i) $3 \times 5\frac{4}{7} =$	j) $7 \div 9 =$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 33 29/08/24 22:37

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

2 Maryamning 49 000 so‘m puli bor edi. U pulining $\frac{3}{7}$ qismiga qalamdon sotib oldi. Unda qancha pul qoldi?

3 3 ℓ sut 5 ta idishga teng taqsimlansa, har bir idishda qanchadan sut bo‘ladi? Javobni millilitrda ifodalang.

4 6- “A” sinfdagi o‘quvchilarning $\frac{2}{5}$ qismini o‘g‘il bolalar tashkil qiladi. O‘g‘il bolalarning $\frac{1}{6}$ qismi chapaqay. Chapaqay bo‘lmagan o‘g‘il bolalar sinfdagi o‘quvchilarning qancha qismini tashkil qiladi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 34 29/08/24 22:37


Ism: Sinf: Sana:

To‘g‘ri kasrni natural songa bo‘lish


D1 1-topshiriq

1 Bo‘lishni bajaring. Javobni qisqarmas kasr ko‘rinishida ifodalang.


a) $\frac{1}{6} \div 2 =$



b) $\frac{1}{3} \div 3 =$



c) $\frac{1}{5} \div 4 =$



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 35 29/08/24 22:37

2 Bo‘lishni bajaring. Javobni qisqarmas kasr ko‘rinishida ifodalang.

a) $\frac{2}{3} \div 5 =$	b) $\frac{2}{7} \div 4 =$
c) $\frac{3}{5} \div 3 =$	d) $\frac{3}{4} \div 7 =$
e) $\frac{4}{5} \div 8 =$	f) $\frac{8}{11} \div 2 =$
g) $\frac{8}{9} \div 12 =$	h) $\frac{5}{6} \div 20 =$
i) $\frac{7}{8} \div 14 =$	j) $\frac{5}{12} \div 15 =$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 36 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 2-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching. Javobni qisqarmas kasr ko‘rinishida ifodalang.

1 Idishda $\frac{9}{10}$ ℓ sharbat bor. Lobar opa idishdagi sharbatni 3 ta stakanga teng qilib quydi. Har bir stakanga necha litrdan sharbat quyilgan?

2 $\frac{7}{8}$ kg tuz 7 ta xaltachaga teng qilib qadoqlandi. Har bir xaltachadagi tuzning massasi qancha?

3 $\frac{4}{5}$ m li ip kesilib, teng 2 bo‘lakka ajratildi. Har bir bo‘lakning uzunligini toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 37 29/08/24 22:37

4 Pitsaning $\frac{4}{7}$ qismi 8 ta teng bo‘lakka bo‘lindi. Har bir bo‘lak pitsaning qancha qismini tashkil qiladi?

5 Jami pulning $\frac{2}{3}$ qismi 6 kishiga teng taqsimlansa, har bir kishi jami pulning qancha qismini oladi?

6 Kvadrat shaklidagi qog‘ozning perimetri $\frac{7}{10}$ m ga teng. Shu qog‘ozning bir tomoni uzunligini toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 38 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 3-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching. Javobni qisqarmas kasr ko‘rinishida ifodalang.

1 $\frac{19}{20}$ m uzunlikdagi sim bukilib, kvadrat hosil qilindi. $\frac{3}{20}$ m sim ishlatilmay qoldi.

a) Kvadrat hosil qilish uchun ishlatilgan sim uzunligini toping.

b) Kvadratning har bir tomoni uzunligini toping.

2 Pirogning $\frac{3}{5}$ qismi Kamola, Dono va Hilolaga teng bo‘lib berildi. Kamola pirogining $\frac{1}{2}$ qismini Sohibaga berdi.

a) Har bir qiz pirogning qancha qismini olgan?

b) Kamolada pirogning qancha qismi qoldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 39 29/08/24 22:37

3 Savatdagi mevalarning $\frac{7}{12}$ qismi – qizil olma, qolgani esa yashil olma. Oybek barcha yashil olmalarni 5 ta do‘stiga teng qilib bo‘lib berdi. Uning har bir do‘sti savatdagi mevalarning qancha qismini olgan?

4 Temurda $\frac{2}{5}$ kg, Jamilada esa $\frac{1}{2}$ kg pista bor. Ular jami pistani 6 ta paketga teng miqdorda joylashdi va Javlon paketlardan 3 tasini oldi.

a) Har bir paketga qanchadan pista joylandi?
b) Javlon qancha pista olgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 40 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

Natural sonni to‘g‘ri kasrga bo‘lish


D1 4-topshiriq

1 Bo‘lishni bajaring. Ifodalarning qiymatini toping.

a) $3 \div \frac{1}{2}$


$= 3 \times \frac{2}{1}$

$=$




b) $4 \div \frac{1}{3}$

$=$




c) $3 \div \frac{3}{5}$

$=$



d) $6 \div \frac{2}{3}$

$=$



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 41 29/08/24 22:37

2 Bo‘lishni bajaring. Ifodalarning qiymatini toping.

a) $7 \div \frac{1}{6} =$	b) $9 \div \frac{1}{5} =$
c) $14 \div \frac{7}{8} =$	d) $20 \div \frac{2}{5} =$

3 Bo‘lishni bajaring. Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.

a) $6 \div \frac{5}{8} =$	b) $10 \div \frac{3}{4} =$
c) $9 \div \frac{6}{7} =$	d) $18 \div \frac{8}{9} =$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 42 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 5-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Malika opa bayram uchun 10 ta pitsa sotib oldi. Bayramda ishtirok etadigan har bir bola pitsaning $\frac{1}{5}$ qismini oldi. Malika opa necha nafar bolaga pitsa bergan?

2. 12 m uzunlikdagi arqon har biri $\frac{3}{4}$ m li teng bo‘laklarga bo‘lindi. Arqon nechta bo‘lakka bo‘lingan?

3. Anjuman soat 09:00 da boshlandi va 13:00 da tugadi. Anjumanda har bir ma’ruza $\frac{2}{3}$ soat davom etdi. Anjumanda nechta ma’ruza eshitildi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 43 29/08/24 22:37

4 Botir aka har birining massasi $\frac{3}{10}$ kg dan bo‘lgan bir nechta paketda 6 kg shakar sotib oldi. U necha paket shakar sotib oldi?

5 Jamshid yil davomida bir nechta multfilm tomosha qildi va bunga 15 soat sarf qildi. Har bir multfilm $\frac{5}{12}$ soat davom etgan bo‘lsa, Jamshid jami nechta multfilm tomosha qilgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 44 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 6-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Azamat aka grafindagi 4 ℓ suvni sig‘imi $\frac{5}{8}$ ℓ dan bo‘lgan bir nechta stakanga to‘ldirib quydi.

a) U ko‘pi bilan nechta stakanga suv quygan?
b) Shundan so‘ng grafinda qancha suv qoldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 45 29/08/24 22:37

2 Qopda 8 kg guruch bor. Lola opa qopdagi guruchni $\frac{3}{8}$ kg li bir nechta bir xil idishga to‘ldirib soldi.

a) U ko‘pi bilan nechta idishni to‘ldira olgan?

b) Idishlarga solingandan keyin qopda qancha guruch qoldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 46 29/08/24 22:37


3 Davronga kamon yasash uchun 13 m kamon ipi berildi. U $\frac{2}{5}$ m ipdan bitta kamon yasashi mumkin.

a) U ko‘pi bilan nechta kamon yasay oladi?

b) Qancha ip ishlatilmay qoladi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 47 29/08/24 22:37

4 A va B ko‘cha chirog‘i orasidagi masofa 9 km. Ular orasidagi har $\frac{3}{4}$ km masofada yana bir nechta ko‘cha chirog‘i o‘rnatildi. Jami nechta yangi ko‘cha chirog‘i o‘rnatilgan?



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 48 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

To‘g‘ri kasrni to‘g‘ri kasrga bo‘lish


D1 7-topshiriq

1 Bo‘lishni bajaring va javobni oddiy kasr ko‘rinishida ifodalang.


a) $\frac{4}{5} \div \frac{1}{10}$

$= \frac{4}{5} \times \frac{10}{1}$


$=$



b) $\frac{2}{3} \div \frac{1}{6}$



c) $\frac{6}{10} \div \frac{1}{5}$



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 49 29/08/24 22:37

2 Bo‘lishni bajaring.

a) $\frac{1}{4} \div \frac{1}{8}$	b) $\frac{1}{2} \div \frac{1}{6}$
c) $\frac{3}{4} \div \frac{1}{8}$	d) $\frac{8}{9} \div \frac{4}{9}$

3 Bo‘lishni bajaring va javobni oddiy kasr ko‘rinishida ifodalang.

a) $\frac{7}{12} \div \frac{8}{9}$	b) $\frac{8}{11} \div \frac{4}{5}$

4 Bo‘lishni bajaring va javobni aralash kasr ko‘rinishida ifodalang.

a) $\frac{5}{12} \div \frac{1}{4}$	b) $\frac{7}{10} \div \frac{2}{5}$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 50 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 8-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.


1 Ozoda xolada butun pitsaning $\frac{9}{10}$ qismi bor. U shu qismni kichik bo‘laklarga bo‘ldi. Har bir kichik bo‘lak butun pitsaning $\frac{3}{20}$ qismiga teng bo‘ldi. Ozoda xolada pitsaning nechta kichik bo‘lagi bor?

2 To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi matoning yuzi $\frac{4}{5}$ m^2, eni esa $\frac{5}{8}$ m. Matoning bo‘yini toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 51 29/08/24 22:37

3 Azamat aka $\frac{5}{6}$ soat davomida tajriba o‘tkazmoqchi. Tajriba davomida u har $\frac{1}{6}$ soatda suvning haroratini tekshirib turishi kerak. U suvning haroratini necha marta tekshirishi kerak?

4 A rasmda yuzi $\frac{3}{4}$ m^2 bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak tasvirlangan. B rasmda esa A rasmdagi to‘g‘ri to‘rtburchakdan qirqib olingan va yuzi $\frac{3}{16}$ m^2 bo‘lgan shakl tasvirlangan.
A rasmdagi to‘g‘ri to‘rtburchakdan xuddi shunday shakllardan ko‘pi bilan nechtasini qirqib olish mumkin?



A rasm B rasm

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 52 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 9-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Jamila ichimlik tayyorlash uchun $\frac{4}{5}$ ℓ apelsin sharbatiga $\frac{1}{10}$ ℓ suv qo‘shdi. Keyin u ichimlikni $\frac{1}{8}$ ℓ dan qilib bir xil stakanlarga quyib chiqdi.

a) $\frac{1}{8}$ ℓ dan ichimlik solingan stakanlar ko‘pi bilan nechta bo‘ldi?

b) Necha litr ichimlik ortib qoldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 53 29/08/24 22:37

2 Jo‘mrak ochilgandan so‘ng suv bo‘sh idishga tusha boshladi. 1 minutda idishning $\frac{1}{10}$ qismi to‘ldi.

a) Idishning $\frac{1}{5}$ qismini to‘ldirishga qancha vaqt ketadi?

b) Agar suv ikki marta tezroq tushsa, idishning $\frac{4}{5}$ qismini to‘ldirish uchun qancha vaqt ketadi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 54 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Matnli masalalar

D1 10-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Qutidagi 120 ta tugmaning $\frac{1}{3}$ qismi qizil, $\frac{5}{12}$ qismi ko‘k, qolgani esa sariq rangda bo‘lib, tikuvchi sariq tugmalarning $\frac{1}{6}$ qismini ko‘ylakka qadadi. Tikuvchi ko‘ylakka nechta sariq tugma qadagan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 55 29/08/24 22:37

2 6 -“A” sinf o‘quvchilarining $\frac{3}{5}$ qismi – qizlar, qolgani esa o‘g‘il bolalar. Qizlarning $\frac{1}{3}$ qismi va o‘g‘il bolalarning $\frac{1}{4}$ qismi ko‘zoynak taqadi. Sinfdagi jami o‘quvchilarning qancha qismi ko‘zoynak taqadi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 56 29/08/24 22:37

3 Umar ota pulining $\frac{1}{4}$ qismini yegulikka va qolgan pulining $\frac{1}{9}$ qismini transportga sarfladi. Shundan so‘ng u qolgan pulini 4 nafar nabirasiga 24 000 so‘mdan bo‘lib berdi. Dastlab Umar otaning qancha puli bor edi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 57 29/08/24 22:37

4 Aziza opa pechenye pishirdi. Ularning $\frac{1}{4}$ qismini o‘zi yedi va $\frac{3}{10}$ qismini qo‘shnisiga berdi. Shundan so‘ng unda 27 ta pechenye qoldi. Aziza opa qo‘shnisiga nechta pechenye bergan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 58 29/08/24 22:37

5 Lola opa pishirgan tortlarning $\frac{3}{7}$ qismi – ananasli, $\frac{2}{5}$ qismi – qulupnayli, qolgani esa kokosli. Ananasli tortlar kokosli tortlarga qaraganda 252 taga ko‘p. Lola opa nechta qulupnayli tort pishirgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 59 29/08/24 22:37

6 8 m li arqondan har biri $\frac{2}{5}$ m bo‘lgan 18 ta bo‘lak kesib olindi. Arqonning qolgan qismidan $\frac{1}{5}$ m li bo‘laklardan nechta kesib olish mumkin?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 60 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 11-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Muroddagi markalarning $\frac{2}{5}$ qismi O‘zbekiston, qolgani esa Qozog‘iston markalari. U O‘zbekiston markalaridan $\frac{1}{2}$ qismini, Qozog‘iston markalaridan esa $\frac{1}{3}$ qismini do‘stiga berdi. Shundan so‘ng unda 120 ta marka qoldi. Murod do‘stiga qancha marka bergan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 61 29/08/24 22:37

2 Ozoda xolaning qizil, yashil va sariq tugmalari bor edi. Uning yashil tugmalari sariq tugmalaridan 80 taga, qizil tugmalari esa yashil tugmalaridan 15 taga ko‘p. U sariq tugmalarining $\frac{1}{2}$ qismini va yashil tugmalarining $\frac{3}{4}$ qismini ko‘ylaklarga qadadi. Shundan keyin unda 290 ta tugma qoldi. Ozoda xolada dastlab nechta tugma bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 62 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**


Amaliy topshiriq

To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi qog‘ozning buklangan qismlari uzunligini oddiy kasr ko‘rinishida ifodalang.

Mashq daftarining 227-betidagi ilovada berilgan to‘g‘ri to‘rtburchakni qirqib oling va uni quyidagicha buklang.

1-qadam

Kesib olingan to‘g‘ri to‘rtburchakni teng ikkiga buklang.




2-qadam

So‘ng yana teng ikkiga buklang.



3-qadam

Buklangan qog‘ozni yana teng ikkiga buklang.



Jadvalda har bir buklangan qism uzunligi uchun ifoda tuzing va uni oddiy kasr ko‘rinishida yozing.

Kasrlarda qanday o‘zgarishni (qonuniyatni) kuzatdingiz? Qonuniyatga ko‘ra jadvalni to‘ldiring.

	Buklangan qism uzunligi oddiy kasrda
1-buklash	
2-buklash	
3-buklash	
4-buklash	
5-buklash	

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 63 29/08/24 22:37

Muammoli topshiriq 

E’zoza pulining $\frac{1}{3}$ qismini ko‘ylakka, $\frac{1}{4}$ qismini esa yubkaga sarfladi. Keyin u qolgan pulining $\frac{1}{2}$ qismini kitobga va 24 000 so‘mni yegulikka sarfladi. Shundan keyin unda dastlabki pulining $\frac{1}{12}$ qismi qoldi. U kitobga qancha pul sarfladi?

Masalani tushundingizmi?
Reja tuzing.
Masalani yeching.
Javobni tekshirishni unutmang.

Reja

Yechish

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 64 29/08/24 22:37

Tekshirish


81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 65 29/08/24 22:37

Matematika kundaligi



Quyida $\frac{1}{3} \div \frac{1}{6}$ bo‘linmani topishga oid Jamila, Botir va Maryamning yechimlari ko‘rsatilgan.

Jamila



$\frac{1}{3} \div \frac{1}{6} = \frac{1}{18}$ ✗

Botir

$\frac{1}{3} = \frac{2}{6}$

Shunday qilib, javob 2.

✓

Maryam

$\frac{1}{3} \div \frac{1}{6} = \frac{1}{3} \times \frac{6}{1}$

$= 2$

✓

a) Jamilaning javobi noto‘g‘ri. Chizma-model yordamida to‘g‘ri yechimni ko‘rsating.

b) Botirning fikri to‘g‘ri. Masalani Maryamning usulidan foydalanmasdan yeching.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 66 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

I TAKRORLASH

Algebra

1 Ifodalarni soddalashtiring.

a) $5x + 4 - 2x$	b) $9 + 3k + 4 + 9k$
c) $10j - 2j - 8 - j$	d) $15h + 4 - 4h - 4$

2 $x = 8$ bo‘lganda har bir ifodaning qiymatini toping.

a) $4x - x + 2x$	b) $24 + 3x - 14$
c) $\frac{3x + 8}{2}$	d) $\frac{56 - 5x}{4}$

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 67 29/08/24 22:37

3 Jamol va Kamol likopchadagi p ta pechenyeni teng ikkiga bo‘lib olishdi. Keyin Jamol o‘zining pechenyelaridan 5 tasini yeb qo‘ydi. Jamolda qancha pechenye qolganini p orqali ifodalang.

4 Hanifa x yoshda. Barnoning yoshi Hanifanikidan 3 marta katta bo‘lib, Sevinchnikidan esa 4 yoshga kichik.

a) Sevinchning yoshini x orqali ifodalang.

b) Agar Hanifa 10 yoshda bo‘lsa, Sevinch Hanifadan necha yosh katta?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 68 29/08/24 22:37

5 Surayyoda 6*x* ta shirinlik bor. U har bir dugonasiga 9 tadan shirinlik berdi va unda 2*x* ta shirinlik qoldi. Surayyo nechta dugonasiga shirinlik bergan? Javobni *x* orqali ifodalang.

6 Mahmud va Mubinada jami 84 000 so‘m pul bo‘lib, Mahmudning puli Mubinaning pulidan 6000 so‘m kam. Mubinadagi pul miqdorini toping. Masalani tenglama tuzib yeching.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 69 29/08/24 22:37

Kasrlar

7 Bo‘lishni bajaring.

a) $\frac{2}{3} \div 6$	b) $5 \div \frac{4}{5}$
c) $\frac{1}{4} \div \frac{1}{12}$	d) $\frac{7}{8} \div \frac{3}{4}$

8 $\frac{4}{5}$ kg shakar paketchalarga $\frac{1}{10}$ kg dan qadoqlandi. Shakarni qadoqlash uchun nechta paketcha kerak bo‘ldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 70 29/08/24 22:37

9 1-idishning $\frac{1}{6}$ qismi guruch bilan to‘ldirildi. Keyin shu guruchning hammasi 1-idishning hajmidan ikki baravar katta bo‘lgan 2-idishga solindi. 2-idishning qancha qismi guruch bilan to‘lgan?

10 Sig‘imi 3 ℓ bo‘lgan ko‘zani suv bilan to‘ldirish uchun sig‘imi $\frac{2}{5}\ell$ bo‘lgan stakandan foydalanildi. Bo‘sh ko‘zani to‘ldirish uchun necha stakan suv kerak bo‘ldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 71 29/08/24 22:37

11 $\frac{4}{5}$ kg un 4 ta paketga teng miqdorda qadoqlandi. Har bir paketdagi unning massasini grammda ifodalang.

12 Zaynab buvi $\frac{9}{10}$ metrli tasmaning $\frac{1}{4}$ metrini sovg‘a bezatish uchun ishlatdi. Qolgan tasmadan esa har biri $\frac{1}{10}$ metrdan bo‘lgan kichik tasmachalar kesib oldi.

a) U kichik tasmachalardan ko‘pi bilan nechta kesib olgan?

b) Kichik tasmachalar kesib olingandan keyin Zaynab buvida necha santimetr tasma qoldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 72 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

3 Nisbatlar

Eslang 

Nisbat tushunchasi

1 Nisbatlarni toping.



a) Qora tugmalar sonining oq tugmalar soniga nisbati _____.

b) Kulrang tugmalar sonining qora tugmalar soniga nisbati _____.

c) Oq, kulrang va qora tugmalar sonlari nisbati _____.

d) Qora tugmalar sonining barcha tugmalar soniga nisbati _____.

2 Quyidagi nisbatlarni qisqarmas ko‘rinishda yozing.

a) 14 : 7 = _____ : _____	b) 16 : 24 = _____ : _____
c) 36 : 18 : 15 = _____ : _____ : _____	d) 125 : 75 : 30 = _____ : _____ : _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 73 29/08/24 22:37

3 Quyidagi nisbatlarda tushirib qoldirilgan sonlarni yozing.

a) 4 : 7 = 20 : _____	b) 35 : 28 = _____ : 4
c) 4 : 3 : 7 = 36 : _____ : 63	d) _____ : 7 : 6 = 80 : 56 : 48
e) 2 : 5 : 8 = 14 : _____ : _____	f) 42 : 72 : 24 = _____ : _____ : 4

4 Xaridorga sotib olgan har 5 ta qalami uchun 2 ta o‘chirg‘ich tekinga qo‘shib beriladi.



Jadvalni to‘ldiring.

Tekinga berilgan o‘chirg‘ichlar soni	2	4			
Sotib olingan qalamlar soni	5		15	30	50

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 74 29/08/24 22:37

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

5 Qutida 80 ta qizil va ko‘k rangli qog‘oz bor. Qizil rangli qog‘ozlar sonining ko‘k rangli qog‘ozlar soniga nisbati 3 : 5. Qutida nechta ko‘k rangli qog‘oz bor?

6 Ozoda xola shirinlik pishirganida har 80 g unga 10 g sariyog‘ qo‘shadi.

a) U 80 g sariyog‘ni qancha unga qo‘shadi?

b) 480 g un uchun qancha sariyog‘ kerak?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 75 29/08/24 22:37

7 Jamol sarflagan pulning tejab qolgan puliga nisbati 9 : 5. U tejaganidan ko‘ra 4400 so‘m ko‘p sarfladi. Dastlab Jamolda qancha pul bo‘lgan?

8 60 cm li tasma 2 qismga bo‘lindi. Hosil bo‘lgan tasmalardan biri ikkinchisidan 24 cm uzun.

a) Kichik tasmaning uzunligi qancha?

b) Kichik tasma uzunligining katta tasma uzunligiga nisbatini toping. Javobni qisqarmas ko‘rinishda yozing.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 76 29/08/24 22:37


Ism: Sinf: Sana:

Nisbat va kasr

D1 1-topshiriq


Oddiy kasr ko‘rinishida yozing.

1 Kamoladagi stikerlar sonining Donodagi stikerlar soniga nisbati 2 : 6 ga teng.



Kamoladagi stikerlar soni Donodagi stikerlar sonining _____ qismiga teng.

2 Sinfdagi qizlar sonining o‘g‘il bolalar soniga nisbati 6 : 5 ga teng.



a) Qizlar soni o‘g‘il bolalar sonining _____ qismiga teng.

b) O‘g‘il bolalar soni qizlar sonining _____ qismiga teng.

c) Qizlar soni jami o‘quvchilar sonining _____ qismiga teng.

d) Jami o‘quvchilar soni o‘g‘il bolalar sonining _____ qismiga teng.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 77 29/08/24 22:37

3 Berilgan jumlalar asosida nisbatlarni yozing.

a) Jamolning bo‘yi Murod bo‘yining $\frac{7}{8}$ qismiga teng.	Jamolning bo‘yi : Murodning bo‘yi □ : □ Murodning bo‘yi : Jamolning bo‘yi □ : □
b) Suzuvchilar soni bokschilar sonining $\frac{3}{2}$ qismiga teng.	Suzuvchilar : Bokschilar □ : □ Bokschilar : Suzuvchilar □ : □
c) Qizlar sonining $\frac{1}{3}$ qismi o‘g‘il bolalar soniga teng.	O‘g‘il bolalar : Qizlar □ : □ O‘g‘il bolalar : O‘g‘il bolalar va qizlarning umumiy soni □ : □
d) Itlar soni mushuklar soniga qaraganda 5 baravar ko‘p.	Itlar : Mushuklar □ : □ Itlar : It va mushuklarning umumiy soni □ : □

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 78 29/08/24 22:37

4 Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing.

Katta maydonda tomosha qo‘yildi. Tomoshaga kelgan har 3 nafar bolaga 5 nafar katta yoshli kishi to‘g‘ri keladi.

a) Katta yoshlilar sonining bolalar soniga nisbati _____ : _____.

b) Katta yoshlilar soni bolalar sonining $\frac{\square}{\square}$ baravariga teng.

c) Bolalar sonining maydondagi jami tomoshabinlar soniga nisbati

_____ : _____.

d) Bolalar soni jami tomoshabinlar sonining $\frac{\square}{\square}$ qismiga teng.

5 Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing. Javoblarni qisqarmas ko‘rinishda ifodalang.

Qutidagi har 6 ta olmaga 9 ta apelsin to‘g‘ri keladi.

a) Olmalar sonining apelsinlar soniga nisbati _____ : _____.

b) Olmalar soni apelsinlar sonining $\frac{\square}{\square}$ qismiga teng.

c) Apelsinlar soni olma va apelsinlar umumiy sonining $\frac{\square}{\square}$ qismiga teng.

6 Jamiladagi pul Charosdagi puldan 4 marta ko‘p.

a) Jamiladagi pulning Charosning puliga nisbatini toping.

b) Charosning puli Jamiladagi pulning qancha qismiga teng?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 79 29/08/24 22:37

7 Botir akaning vazni o‘g‘li vaznining $\frac{15}{8}$ baravariga teng.

a) Botir aka vaznining o‘g‘li vazniga nisbatini toping.

b) O‘g‘li vaznining Botir aka vazniga nisbatini toping.

8 Xiyobondagi katta yoshlilar soni bolalar sonining $\frac{7}{10}$ qismiga teng.

a) Xiyobondagi bolalar sonining katta yoshlilar soniga nisbati qanday?

b) Xiyobondagi katta yoshlilar sonining jami dam oluvchilar soniga nisbati qanday?

c) Xiyobondagi jami dam oluvchilar sonining bolalar soniga nisbati qanday?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 80 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Matnli masalalar

D1 2-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Behruzdagi yong‘oqlar soni Doniyordagi yong‘oqlar sonining $\frac{2}{5}$ qismiga teng bo‘lib, Doniyorning yong‘oqlari sonidan 36 taga kam. Bolalardagi jami yong‘oqlar sonini toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 81 29/08/24 22:37

2 Maryamning bo‘yi 98 cm. Rustamning bo‘yi esa Maryam bo‘yining $\frac{12}{7}$ baravariga teng. Rustamning bo‘yini toping.

3 Ra’noning vazni 45 kg bo‘lib, u Jamila vaznining $\frac{5}{3}$ baravariga teng. Ularning vazni orasidagi farqni toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 82 29/08/24 22:37



4 Perimetri 108 cm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi enining $\frac{5}{4}$ baravariga teng. To‘g‘ri to‘rtburchakning enini toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 83 29/08/24 22:37

5 Shohistaning 3600 so‘m puli bor. Shohistadagi pulning $\frac{1}{3}$ qismi Hiloladagi pulning $\frac{3}{4}$ qismiga teng.

a) Shohistadagi pulning Hilolaning puliga nisbatini toping.


b) Hilolada qancha pul bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 84 29/08/24 22:37

6 Rasmda ABEF kvadrat va BCDF trapetsiya berilgan.
Bu ikki shakl xuddi rasmdagidek ustma-ust qo‘yilgan. P va Q shakllar yuzining nisbati 4 : 13. Kvadratning yuzi esa 100 cm^2 ekani ma’lum.

a) Kvadrat yuzining trapetsiya yuziga nisbatini toping.

b) Trapetsiyaning yuzini toping.



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 85 29/08/24 22:37

7 E’zozadagi stikerlarning $\frac{3}{5}$ qismi Barnodagi stikerlardan ikki baravar ko‘p. E’zozada Barnodagiga qaraganda 56 ta ko‘p stiker bor.

a) E’zozadagi stikerlar sonining Barnodagi stikerlar soniga nisbatini toping.

b) Barnoda nechta stiker bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 86 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

Uch miqdor nisbati

D1 3-topshiriq

Uch miqdor nisbatini toping.

1 X : Y = 5 : 6 va Y : Z = 3 : 2 bo‘lsa, X : Y : Z nisbatni qisqarmas ko‘rinishda yozing.

2 A : B = 3 : 1 va A : C = 4 : 5 bo‘lsa, A : B : C ni toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 87 29/08/24 22:37

3 Sariq tugmalar sonining qizil tugmalar soniga nisbati 2 : 5. Pushti tugmalar sonining qizil tugmalar soniga nisbati 1 : 3. Sariq, qizil va pushti tugmalar sonining nisbatini toping.

4 Konsertdagi katta yoshlilar sonining qizlar soniga nisbati 3 : 4. Katta yoshlilar sonining o‘g‘il bolalar soniga nisbati esa 4 : 3. Konsertdagi kattalar, qizlar va o‘g‘il bolalar sonining nisbatini toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 88 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 4-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1 Qutida qizil, ko‘k va yashil rangli tugmalar bor. Qizil tugmalar sonining ko‘k tugmalar soniga nisbati 4 : 1. Qizil tugmalar sonining yashil tugmalar soniga nisbati esa 3 : 2. Qizil tugmalar yashil tugmalardan 120 taga ko‘p ekani ma’lum.

a) Ko‘k, qizil va yashil tugmalar sonining nisbatini toping.

b) Qutida jami nechta tugma bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 89 29/08/24 22:37

2 Doniyordagi markalar soni Yusufdagi markalar sonining $\frac{5}{8}$ qismiga teng. Farhoddagi markalar soni esa Yusufdagi markalar sonining yarmiga teng. Farhodda 40 ta marka borligi ma'lum.

a) Doniyor, Yusuf va Farhoddagi markalar sonining nisbatini toping. Javobni qisqarmas ko'rinishda yozing.

b) Doniyor va Yusufda jami nechta marka bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 90 29/08/24 22:37


3 Olim, Akmal va Samandar 37 000 so‘mni o‘zaro bo‘lib olishdi. Olim olgan ulushning Akmalga teggan ulushga nisbati 5 : 6 bo‘ldi. Olim olgan ulushning Samandarga teggan ulushga nisbati esa 2 : 3 bo‘ldi.

a) Kimning ulushi eng katta?

b) Eng kam ulush miqdori qancha?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 91 29/08/24 22:37

4 Rasmda berilgan to‘g‘ri to‘rtburchak 3 ta: P, Q va R sohalarga ajratilgan. Q va P sohalar yuzi nisbati 3 : 4, R va P sohalar yuzi nisbati 1 : 2. Q sohaning yuzi R sohaning yuziga qaraganda 34 cm^2 ga katta. Berilgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini toping.



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 92 29/08/24 22:37

5 Olmalar sonining noklar soniga nisbati 4 : 7. Noklar sonining bananlar soniga nisbati esa 2 : 3.

a) Barcha olma va noklar sonining bananlar soniga nisbatini toping.

b) Agar olmalar noklardan 24 taga kam bo‘lsa, bananlar noklardan nechta ko‘p?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 93 29/08/24 22:37

6 Lola xola ziyofat uchun uch xil turdagi 110 ta shirinlik sotib oldi. Shirinliklar yong‘oqli, shokoladli va qulupnayli bo‘lib, sonlarining nisbati 7 : 10 : 5.

a) Shokoladli shirinliklar barcha shirinliklarning qancha qismini tashkil qiladi?

b) Lola xola nechta shokoladli shirinlik sotib olgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 94 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

O‘zgaruvchan nisbatlar

D2 5-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Akmaldagi yong‘oqlar sonining Jasurdagi yong‘oqlar soniga nisbati 8 : 5. Akmal 18 ta yong‘og‘ini opasiga bersa, Akmal va Jasurdagi yong‘oqlar soni bir xil bo‘lib qoladi. Jasurda nechta yong‘oq bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 95 29/08/24 22:37

2 Jamshiddagi olma va apelsinlar soni 5 : 4 nisbatda. U 42 ta olmani do‘stiga bergach, olmalari sonining apelsinlari soniga nisbati 1 : 2 bo‘lib qoldi. Jamshidda dastlab nechta olma bor edi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 96 29/08/24 22:37

3 Sportzaldagi o‘g‘il bolalar sonining qizlar soniga nisbati 3 : 5. Zalni 84 nafar qiz tark etganidan so‘ng o‘g‘il bolalar sonining qizlar soniga nisbati 2 : 1 bo‘lib qoldi. Dastlab zalda necha nafar qiz bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 97 29/08/24 22:37

4 E’zoza va Barnodagi pullarning nisbati 7 : 3 edi. E’zoza pulidan Barnoga bergach, E’zozadagi pulning Barnodagi pulga nisbati 7 : 13 bo‘lib qoldi. Shundan so‘ng Barnodagi pul E’zozanikidan 20 400 so‘mga ko‘p bo‘ldi. E’zoza Barnoga qancha pul bergan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 98 29/08/24 22:37

5 A va B qutilardagi qog‘ozlar soni 5 : 9 nisbatda edi. Maryam B qutidagi 32 ta qog‘ozni A qutiga solganidan so‘ng ikkala qutidagi qog‘ozlar soni teng bo‘lib qoldi. A qutida dastlab nechta qog‘oz bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 99 29/08/24 22:37

6 Komila va Sohibada 120 tadan munchoq bor edi. Komila o‘zidagi bir nechta munchoqni Sohibaga berganidan so‘ng Komiladagi munchoqlar Sohibadagi munchoqlarning $\frac{3}{7}$ qismiga teng bo‘lib qoldi. Komila Sohibaga nechta munchoq bergan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 100 29/08/24 22:37

7 Soliha opadagi qizil va pushti tugmalar 1 : 3 nisbatda edi. U yana qizil va pushti tugmalarning har biridan 15 tadan sotib olgach, tugmalari 2 : 5 nisbatda bo‘lib qoldi. Dastlab unda nechta pushti tugma bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 101 29/08/24 22:37

8 Boburdagi ko‘k va yashil sharlarning soni 4 : 5 nisbatda. U do‘stiga 12 ta ko‘k va 12 ta yashil sharini berdi. Shundan so‘ng undagi sharlarning nisbati 5 : 7 bo‘lib qoldi. Dastlab Boburda nechta ko‘k shar bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 102 29/08/24 22:37

9 Kamola va Dononing pullari 2 : 3 nisbatda. Sumka sotib olish uchun har biri 32 000 so‘mdan pul sarflagach, Kamoladagi pul Donodagi pulning $\frac{3}{5}$ qismiga teng bo‘lib qoldi. Donoda qancha pul qolgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 103 29/08/24 22:37

10 10 yil oldin Maryam va Barnoning yoshi nisbati 2 : 5 edi. Ularning yoshi orasidagi farq 9 yil bo‘lsa, hozir Maryam yoshining Barno yoshiga nisbati qanday?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 104 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D3 5-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Javohirda faqat 1000 so‘mlik, Davronda esa faqat 500 so‘mlik tangalar bor edi. Javohirning tangalari soni Davrondagi tangalar sonining $\frac{2}{3}$ qismiga teng edi. Javohir 1000 so‘mlik tangalar bilan 45 000 so‘mni Davronga berganidan so‘ng Javohirning tangalari soni Davrondagi tangalar sonining $\frac{1}{6}$ qismiga teng bo‘lib qoldi. Davronda qancha pul bo‘ldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 105 29/08/24 22:37

2 Akmal va Olimjonning umumiy jamg‘armasi 100 000 so‘m bo‘lib, Akmaldagi jamg‘armaning $\frac{1}{4}$ qismi Olimjondagi jamg‘armaning $\frac{1}{5}$ qismidan 10 600 so‘mga ko‘p. Akmalning jamg‘armasi Olimjonning jamg‘armasidan qancha ortiq?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 106 29/08/24 22:37


Ism: **Sinf:** **Sana:**

Amaliy topshiriq

Bayroq ustunining balandligini taqriban toping.

Guruhlarda ishlang.
Maktabingizdagi bayroq ustuni soyasining uzunligini o‘lchov tasmasi yordamida o‘lchang.
So‘ng guruhingizdagi biror o‘quvchi bo‘yini va uning soyasi uzunligini o‘lchang.

1 Barcha o‘lchashlarni birlar xonasigacha yaxlitlab, javobini bo‘sh joylarga yozing.



a) O‘quvchining bo‘yi = _____ cm

Uning soyasi uzunligi = _____ cm

b) Bayroq ustuni soyasining uzunligi = _____ cm

2 Bayroq ustuni balandligini taqriban qanday topishni muhokama qiling. O‘z usulingizni taklif qiling.

Bayroq ustunining taqribiy balandligi _____ cm ga teng.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 107 29/08/24 22:37

Muammoli topshiriq

Dastlab bog‘da 300 nafar bola bo‘lib, undagi o‘g‘il bolalar soni qizlar sonining $\frac{7}{8}$ qismiga teng edi. Bog‘ni 36 nafar o‘g‘il bola tark etib, bir necha nafar qiz kelganidan so‘ng o‘g‘il bolalar sonining qizlar soniga nisbati 2 : 5 bo‘lib qoldi.

Bog‘ga necha nafar qiz kelgan?

Masalani tushundingizmi?
Reja tuzing.
Masalani yeching.
Javobni tekshirishni unutmang.

Reja

Yechish

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 108 29/08/24 22:37

Tekshirish

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 109 29/08/24 22:37

Matematika kundaligi



O‘qituvchi Aziza, Madina va Akmaldan quyidagi jumlani kasr yoki nisbatdan foydalanib ifodalashni so‘radi.

Maktabdagi o‘quvchilar soni o‘qituvchilar sonidan 6 marta ko‘p.



O‘quvchilar soni o‘qituvchilar sonining $\frac{1}{6}$ qismiga teng.

Aziza

O‘quvchilar sonining o‘qituvchilar soniga nisbati 1 : 6.



Madina

O‘qituvchilar sonining o‘quvchilar soniga nisbati 6 : 1.



Akmal

Ularning javoblari noto‘g‘ri. Agar xatolarni tushungan bo‘lsangiz, jumlalardan ikkitasini tuzatib yozing.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 110 29/08/24 22:37


Ism: Sinf: Sana:


4 Foizlar

Eslang 

Foiz tushunchasi


1 Shaklning necha foizi bo‘yalgan?


a) 

b) 

_____ _____

2 Bo‘yalgan qismni foizda ifodalang.

a) 


b) 

_____ _____


81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 111 29/08/24 22:37

3 Bo‘sh kataklarga mos foizlarni yozing.

a)



b)



4 Har bir foizni oddiy va o‘nli kasr ko‘rinishida ifodalang.

	Foiz	Oddiy kasr	O‘nli kasr
a)	5%		
b)	24%		
c)	99%		

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 112 29/08/24 22:37

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

5 25 nafar o‘quvchining 12 nafari o‘g‘il bolalar.

a) O‘quvchilarning necha foizi o‘g‘il bolalar?

b) O‘quvchilarning necha foizi qizlar?

6 Mohichehrada 36 000 so‘m bor edi. U pulining 30% ini ovqatga sarfladi. Unda qancha pul qoldi?

7 Abbos aka o‘tgan yili 120 000 so‘mga olgan javonini bu yil 10% arzon narxda sotdi. Abbos aka javonni qanchaga sotgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 113 29/08/24 22:37

8 Stolning QQS (qo‘shimcha qiymat solig‘i)siz narxi 276 000 so‘m edi. Lazizbek stolni sotib olishda 12% QQS to‘ladi. Lazizbek stol uchun qancha pul to‘lagan?

9 Muhabbat xola bankka yillik 6,2% li omonat turi bo‘yicha 5000 AQSH dollari miqdorida pul qo‘ydi. 1 yildan so‘ng Muhabbat xolaning omonat hisobraqamida qancha pul bo‘ladi?

10 Ozodbek pech sotib olmoqchi. Qaysi do‘konda pech arzonroq turadi?

A do‘kon



Narxi: 190 000 so‘m
Chegirma: 15%

B do‘kon



Narxi: 200 000 so‘m
Chegirma: 20%

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 114 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Foizi va qismiga ko‘ra sonning o‘zini topish

D1 1-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Do‘konda sotilgan pishiriqlarning 40 foizi shokoladli. Do‘konda 120 ta shokoladli pishiriq sotilgan. Do‘konda jami nechta pishiriq sotilgan?

2. Oybek ko‘ylakni 20% chegirma bilan 84 000 so‘mga sotib oldi. Ko‘ylakning chegirmasiz narxi qancha?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 115 29/08/24 22:37

3 Lobar ko‘ylak sotib olmoqchi. Buning uchun u ko‘ylak narxining 12% i miqdorida 24 000 so‘m QQS to‘lashi kerak. Ko‘ylakning QQSsiz narxi qancha?

4 Karimda rangli qog‘ozlar to‘plami bor edi. U o‘zidagi rangli qog‘ozlarning 8% ini akasiga berdi va unda 184 ta rangli qog‘oz qoldi. Karimda dastlab nechta rangli qog‘oz bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 116 29/08/24 22:37

5 Dilorom xola telefon sotib oldi. U dastlab umumiy narxning 12% ini to‘lagach, yana to‘lanishi kerak bo‘lgan 114 400 so‘m qoldi. Telefonning narxi qancha?

6 Sonning 42 foizi 672 ga teng.

a) Sonning o‘zini toping.

b) Sonning 60% ini toping.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 117 29/08/24 22:37

7 Hamidada bir quti tugma bor. Qutidagi tugmalarning 65 foizi sariq, 20 foizi ko‘k, qolgan 75 tasi esa yashil rangda. Undagi jami tugmalar soni nechta?

8 Supermarketdagi muzqaymoqlarning 25 foizi qulupnayli, 33 foizi shokoladli, qolganlari esa qaymoqli. Qaymoqli muzqaymoqlar soni 126 ta. Supermarketda jami nechta muzqaymoq bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 118 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D2 2-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Do‘konda qulupnayli va shokoladli tortlar bo‘lib, ularning 36 foizi – qulupnayli. Do‘kondagi shokoladli tortlar qulupnaylilaridan 98 taga ko‘p. Do‘konda jami nechta tort bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 119 29/08/24 22:37


2 Bayramda sharlarning $\frac{1}{10}$ qismi yorilib ketdi, 35 foizi esa bolalarga berildi. Shundan so‘ng 220 ta shar qoldi. Dastlab nechta shar bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 120 29/08/24 22:37

3 Quyidagi chizmada maktabning 6-sinfida ko‘zoynak taqadigan va taqmaydigan o‘quvchilarning foizi tasvirlangan. 6-sinfda jami 112 nafar o‘quvchi qiz bor.

a) 6-sinfda jami nechta o‘quvchi o‘qiydi?

b) O‘quvchilardan nechtasi ko‘zoynak taqadi?



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 121 29/08/24 22:37

4 Lazizbek, Karim va Alibek bir nechta sharni o‘zaro bo‘lib olishdi. Lazizbek sharlarning 50% ini oldi. Alibek Karimdan 4 baravar ko‘p shar oldi. Alibek 28 ta shar olgani ma’lum. Ularda hammasi bo‘lib nechta shar bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 122 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

O‘sish foizi va kamayish foizini topish

D1 3-topshiriq

1 Tegishli hisoblashlarni bajarib, jadvalni to‘ldiring.

	Sharlarning dastlabki soni	Sharlarning keyingi soni	Sharlar sonining o‘sishi	Necha foizga o‘sgani
a)	80	120		
b)		400	80	

2 Tegishli hisoblashlarni bajarib, jadvalni to‘ldiring.

	Dastlabki narx	Keyingi narx	Narxning kamayishi	Necha foizga kamaygani
a)	9600 so‘m	8400 so‘m		
b)		8100 so‘m	18 900 so‘m	

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 123 29/08/24 22:37

3 Rasulning vazni o‘tgan yili 80 kg edi. Bu yil u 15 kg vazn yo‘qotdi. Rasulning vazni necha foizga kamayganini toping.



4 Klubning 5400 nafar a’zosi bor edi. Bir yildan so‘ng 600 nafar a’zo klubni tark etdi. Klub a’zolari soni necha foizga kamayganini toping. Javobni o‘ndan birlar xonasigacha yaxlitlang.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 124 29/08/24 22:37

5 Fayoza may oyida 7500 so‘m, iyun oyida esa 8700 so‘m tejadi. U iyun oyida may oyiga qaraganda necha foiz ko‘p pul tejagan?

6 O‘tgan yilgi xayriya marafonida 400 kishi, bu yilgisida esa 500 kishi qatnashdi. Bu yilgi ishtirokchilar soni o‘tgan yilgiga qaraganda necha foizga o‘sgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 125 29/08/24 22:37

7 Bir yil oldin Abbosning bo‘yi 1,55 m edi. Hozir esa 1,62 m. Abbosning bo‘yi necha foizga o‘sganini toping. Javobni yuzdan birlar xonasigacha yaxlitlang.

8 Fayoza viktorinaning 1-turida 1276 ball, 2-turda 1234 ball to‘pladi. Fayoza 2-turda 1-turga qaraganda necha foiz kam ball to‘plaganini toping. Javobni yuzdan birlar xonasigacha yaxlitlang.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 126 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Matnli masalalar

D1 4-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. O‘tgan yili shaxmat to‘garagining 60 nafar a’zosi bor edi. Bu yil a’zolar soni 15 foizga ortdi. Shaxmat to‘garagida bu yil necha nafar a’zo bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 127 29/08/24 22:37

2 Samovarda dastlab 80 ℓ choy bor edi. Bir necha kishi samovardagi choydan ichdi va choy hajmi 12% ga kamaydi. Natijada samovarda necha litr choy qoldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 128 29/08/24 22:37



Fevral oyida dazmolning narxi 121 000 so‘m bo‘ldi. Bu yanvar oyidagi narxdan 10 foizga ko‘p. Yanvar oyida dazmolning narxi qancha edi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 129 29/08/24 22:37

4 Bu yil Anora o‘tgan yildagiga qaraganda 90 ta ko‘p marka to‘pladi. Bu o‘tgan yilgi markalar sonidan 18 foizga ko‘p. Bu yil uning markalari nechta bo‘ldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 130 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 5-topshiriq

Matnli masalalarni yeching.

1. Qutida bir nechta munchoq bor. Munchoqlarning 25 foizi yashil, 40 foizi ko‘k va qolganlari qizil rangda. Qizil munchoqlardan ko‘k munchoqlar 30 ta ko‘p. Qutida nechta yashil munchoq bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 131 29/08/24 22:37



Do‘kondagi poliz mahsulotlarining 60 foizi qovun. Qolgan poliz mahsulotlarning 60 foizi qovoq bo‘lib, undan ham qolgani tarvuzdir. Do‘konda 112 ta tarvuz bor. Do‘konda nechta qovun bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 132 29/08/24 22:37



3 Tolib aka may oyida kamerani 5% chegirma bilan 475 000 so‘mga sotib oldi. Agar uni iyun oyida sotib olganida 420 000 so‘m to‘lagan bo‘lardi. Iyun oyida kamera dastlabki narxidan necha foiz chegirma taklif qilingan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 133 29/08/24 22:37

4 Jonibek pulining 25 foizini kitob va qolgan pulining $\frac{1}{5}$ qismini sumka sotib olishga sarfladi. Shundan so‘ng unda 24 000 so‘m qoldi. Dastlab Jonibekning qancha puli bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 134 29/08/24 22:37



Rashidning A va B rusumli ikkita mobil telefoni bor edi. U telefonlarni 25% chegirma bilan sotdi. A telefon 780 000 so‘mga, B telefon esa 1 200 000 so‘mga sotildi. Chegirmaga qadar ikkala mobil telefonning umumiy narxi qancha bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 135 29/08/24 22:37

6 Xaridor beshinchi quti yorma uchun 10%, o‘ninchi quti yorma uchun esa 25% chegirmaga ega bo‘ladi. Bir quti yorma narxi 6000 so‘m. Sobir aka 10 quti yorma uchun qancha to‘lashi kerak?



5-qutiga 10% chegirma!

10-qutiga 25% chegirma!

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 136 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D3 6-topshiriq

Quyidagi matnli masalalarni yeching.

1. Muhabbatda 200 ta tanga bor. Ushbu tangalarning 25 foizi ming so‘mlik tangalardir. U ming so‘mlik tangalar sonini 40% ga yetkazmoqchi. Muhabbat yana nechta ming so‘mlik tanga yig‘ishi kerak?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 137 29/08/24 22:37

2 Novvoyxona rastasida 2 ta tokcha bo‘lib, tokchalarning birinchisida 80 ta, ikkinchisida esa birinchi tokchadagiga qaraganda 15% kam non bor. Lobar xola ikkinchi tokchaga yana bir nechta non qo‘shgach, undagi nonlar soni 25% ga ortdi. Birinchi tokchadagi nonlarning bir qismi sotilib ketishi natijasida undagi nonlar soni 10% ga kamaydi. Rastadagi nonlarning umumiy soni necha foizga ortgani (yoki kamaygani)ni aniqlang. Javobni birlar xonasigacha yaxlitlang.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 138 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Amaliy topshiriq

Tugmalar sonining berilgan foizini tasvirlovchi aylanalar chizing.

Juftlikda ishlang.
Rasmdagi 4 ta tugma barcha tugmalar sonining 25% ini tashkil qiladi.



a) Quyidagi bo‘sh joyga barcha tugmalar sonining 75% ini anglatuvchi aylanalar chizing. Barcha tugmalar soni nechta bo‘lishi kerak?

b) Quyidagi bo‘sh joyga barcha tugmalar sonining 50% ga ortganini anglatuvchi aylanalar chizing. Shunda jami nechta tugma bo‘ladi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 139 29/08/24 22:37

Muammoli topshiriq

Muhabbat xolada dastlab 24 ta qizil, 36 ta ko‘k va 60 ta yashil tugma bor edi. U yana 39 ta tugma sotib olgach, qizil tugmalar soni 25 foizga, yashil tugmalar soni esa 40 foizga ortdi. Ko‘k tugmalar soni necha foizga ortgan?

Masalani tushundingizmi?
Reja tuzing.
Masalani yeching.
Javobni tekshirishni unutmang.

Reja

Yechish

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 140 29/08/24 22:37

Tekshirish

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 141 29/08/24 22:37

Matematika kundaligi



Dastlab mobil telefonning narxi 10% ga oshirildi. Keyin esa bu telefon uchun 10% chegirma ham belgilandi.







Sevaraning “Natijada mobil telefonning narxi o‘zgarishsiz qoladi” degan fikriga qo‘shilasizmi? Tushuntiring.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 142 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

II TAKRORLASH

Nisbat

1 Ravshandagi markalar Abbosdagi markalarning $\frac{3}{5}$ qismiga teng. Abbosda Ravshandagidan 20 ta ko‘p marka bor.

a) Ularda jami nechta marka bor?

b) Abbosdagi markalar sonining jami markalar soniga nisbati qanday?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 143 29/08/24 22:37

2 A quti massasining B quti massasiga nisbati 2 : 3 ga teng. A quti massasining C quti massasiga nisbati 3 : 4 ga teng. A, B, C qutilarning massasi qanday nisbatda?

3 Dastlab Ravshan va Abbosning har birida 84 tadan marka bor edi. Ravshan Abbosga bir nechta marka berganidan so‘ng unda Abbosdagi markalarning $\frac{3}{4}$ qismicha marka qoldi. Abbosda nechta marka bo‘ldi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 144 29/08/24 22:37

4 Yasmina va Sevarada bir xil miqdordagi markalar bor edi. Yasmina Sevaraga 45 ta marka berganidan so‘ng undagi markalar sonining Sevaradagi markalar soniga nisbati 2 : 3 ga teng bo‘ldi. Yasminada dastlab nechta marka bo‘lgan?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 145 29/08/24 22:37

5 Hamida xolada dastlab 4 : 7 nisbatda ko‘k va qizil tugmalar bor edi. U 29 ta ko‘k va 8 ta qizil tugma sotib olganidan so‘ng qizil va ko‘k tugmalar soni teng bo‘ldi. Dastlab Hamida xolada nechta tugma bor edi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 146 29/08/24 22:37

6 Elyordagi jamg‘armaning Botirdagi jamg‘armaga nisbati dastlab 5 : 4 edi. Elyor jamg‘armasidan 20 000 so‘m sarflab, Botir jamg‘armasiga 10 000 so‘m qo‘shsa, ikkalasidagi pul miqdori tenglashadi. Botirning dastlab qancha puli bor edi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 147 29/08/24 22:37

Foizlar

7 Jadvalni mos sonlar bilan to‘ldiring.

Kasr	Foiz	O‘nli kasr
$\frac{2}{5}$		
		0,65
	9%	
$1\frac{1}{2}$		

8 Muhabbat xola ziyofat uchun tort pishirdi. U 80 g shakarni 420 g sariyog‘ bilan aralashtirdi. Aralashmaning necha foizi sariyog‘dan iborat?

9 Qo‘l sumkasining odatdagi narxi 32 000 so‘m edi. Ushbu oyda sumkaning narxi 40 000 so‘mgacha ko‘tarildi. Qo‘l sumkasi narxi necha foizga oshdi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 148 29/08/24 22:37

10 Lazizbek pulining 30 foiziga daftar, qolganining $\frac{3}{7}$ qismiga ruchka sotib olganidan so‘ng unda 7200 so‘m qoldi. Dastlab Lazizbekda qancha pul bo‘lgan?

11 Malikaning qutisida ko‘k va qizil munchoqlar bor. Ularning 25 foizi ko‘k rangda. Malika o‘zidagi ko‘k munchoqlar soniga teng miqdorda yana ko‘k munchoqlar sotib oldi va ularni qutiga solib qo‘ydi.

a) Qizil munchoqlar ulushi oshdimi, kamaydimi yoki bir xil bo‘lib qoldimi?

b) Oxirida qizil munchoqlar qancha foizni tashkil etdi?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 149 29/08/24 22:37

12 Konsert zalidagi erkaklar soni ayollar sonining $\frac{3}{5}$ qismiga teng hamda bolalar soni ayollarga qaraganda 56 nafar ko‘p. Ayollar soni konsert zalidagi tomoshabinlarning 25% ini tashkil etsa, konsert zalida necha nafar tomoshabin bor?

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 150 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

5 Geometrik shakllardagi burchaklar


Eslang




Noma’lum burchaklarni topish

1 Belgilangan noma’lum burchakni toping.


a)




b)




c)




d)



e)




f)




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 151 29/08/24 22:37

2 Belgilangan noma’lum burchaklarni toping.

a) ABC – to‘g‘ri chiziq. ∠ABD = 125°bo‘lsa, ∠DBC ni toping.




b) AOB va COD to‘g‘ri chiziqlar O nuqtada kesishadi. ∠BOC = 162° bo‘lsa, ∠AOD va ∠DOB ni toping.



a) ∠AOD ni toping.
b) ∠DOB ni toping.


c) Quyidagi shaklda ∠AOD = 46°, ∠COB = 81° va ∠DOC to‘g‘ri burchak ekani ma’lum. ∠BOA ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 152 29/08/24 22:37

3 Belgilangan noma'lum burchaklarni toping.


a) ABCD – parallelogramm. ∠DAB va ∠ABC ni toping.



b) EFGH – romb. ∠FGH va ∠GHE ni toping.




c) KLMN – trapetsiya. ∠LMN va ∠NKL ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 153 29/08/24 22:37

4 Belgilangan noma’lum burchaklarni toping.

a) ABD va CBE – to‘g‘ri chiziqlar. ∠CDB ni toping.



b) WXZ va XYZ – teng uchburchaklar. ∠ZWX = 84° bo‘lsa, ∠WXY ni toping.



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 154 29/08/24 22:37


Ism: Sinf: Sana:

Geometrik shakllardagi noma’lum burchaklarni topish


D1 1-topshiriq

1 Belgilangan noma’lum burchaklarni toping.


a) ABCD – parallelogramm. ∠DAC va ∠ACD ni toping.



b) EFGH – romb. ∠EFH va ∠GHF ni toping.




c) KLMN – trapetsiya. ∠LNK va ∠LMN ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 155 29/08/24 22:37

2 Belgilangan noma’lum burchaklarni toping.

a) ABCF va CDEF – trapetsiyalar. ∠DCB ni toping.



b) UVWY – trapetsiya. UXY esa teng yonli uchburchak bo‘lib, UY = UX bo‘lsa, ∠YUX va ∠XUV ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 156 29/08/24 22:37


Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 2-topshiriq

1 ABCD – kvadrat. ∠CEA = 115°. ∠DAE ni toping.




2 EFGH – kvadrat. EJ = FJ va ∠HOG = 90°. ∠GOJ ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 157 29/08/24 22:37

3 JKLI – to‘g‘ri to‘rtburchak. Bunda OJ = OK = OI = OL va ∠LIK = 36° ekani ma’lum. ∠IKL va ∠KOJ ni toping.



4 PQRS – parallelogramm. ∠RSP = 60°, ∠QOP = 110° va ∠SQR = 35°. ∠OPQ va ∠SPO ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 158 29/08/24 22:37


Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 3-topshiriq

1 ABCD – parallelogramm, ECD – teng yonli uchburchak. EC = ED. ∠CDE = 40° va ∠BCE = 35°. ∠*a* va ∠*b* ni toping.




2 EFGH – to‘g‘ri to‘rtburchak, FLGM – romb. ∠MGH = 60°. ∠*c* va ∠*d* ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 159 29/08/24 22:37

3 PQRS – trapetsiya. PT = PU va ∠UTQ = 148°. ∠SPT va ∠RSP ni toping.




4 UVX teng yonli uchburchakda UX = UV. XYVW – romb. ∠XUV = 45° va ∠VWX = 130°. ∠UVY ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 160 29/08/24 22:37

5 ABCD – trapetsiya, ECFD – romb. AD = BC, ∠CFD = 110°, ∠DAB = 58°. ∠EDA ni toping.




6 PQRS – parallelogramm, SQT – to‘g‘ri chiziq. ∠QSP = 41°, SPQ = 108°, ∠QTR = 19°. ∠TRQ ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 161 29/08/24 22:37

7 ABCD – parallelogramm, ABE – uchburchak. ∠DAF = 45°, ∠EFC = 80°.
∠ABE va ∠CEF ni toping.




8 JKL – to‘g‘ri burchakli uchburchak. JPM esa teng yonli uchburchak bo‘lib, JM = PM.
∠OJK = 55° va ∠NLM = 35°. ∠MNL ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 162 29/08/24 22:37

9 DBEC – to‘g‘ri to‘rtburchak, ABC – teng yonli uchburchak. AB = AC, ∠CAB = 40° va ∠ABE = 255°. ∠DBC ni toping.




10 Quyidagi shaklda ∠EBD = 30°, ∠ACE = 40°, ∠BDA = 25° va ∠CEB = 45° ekani ma’lum. ∠DAC ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 163 29/08/24 22:37

11 Quyidagi shaklda ABC va DEF uchburchaklar. ∠DOA ni toping.



12 ABC va AED – to‘g‘ri chiziqlar. Bunda BE = BC, ∠EAB = 23°, ∠CEB = 32° va ∠CDE = 105°. ∠ECD ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 164 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**


D1 4-topshiriq

1 ACF – to‘g‘ri burchakli uchburchak, BCDE – trapetsiya. ∠CFA = 64°, ∠EBC = 60° va ∠FED = 130°. ∠CDE ni toping.



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 165 29/08/24 22:37

2 ABCD – trapetsiya, ABED – parallelogramm. ABCD trapetsiyaning BC tomoni DC tomoniga perpendikulyar va AB = AF. $\angle p$ va $\angle q$ ni toping.



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 166 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Amaliy topshiriq


To‘g‘ri burchakli uchburchaklar yordamida turli to‘rtburchaklarni chizing va ularning burchaklarini toping.

Nuqtali panjarada berilgan 8 ta to‘g‘ri burchakli uchburchak yordamida quyidagi shakllarni chizing. To‘rtburchaklarning burchaklarini a, b, c va d orqali belgilang. $\angle a$, $\angle b$, $\angle c$ va $\angle d$ ni toping.

Namuna



To‘g‘ri burchakli uchburchak



Kvadrat

$\angle a = \angle b = \angle c = \angle d = 90°$

a) to‘g‘ri to‘rtburchak

b) parallelogramm


c) trapetsiya

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 167 29/08/24 22:37

Matematika kundaligi



Quyidagi shaklda XYZ to‘g‘ri chiziq bo‘lib, ∠XYU = 145° va ∠WYZ = 152°.



∠WYU ni topish uchun Jonibek ∠WYZ = 152° dan ∠XYU = 145° ni ayirdi.

$$\angle WYU = 152° - 145°$$
$$= 7°$$

Chizma asosida ∠WYU nega 7° ga teng bo‘la olmasligini Jonibekka izohlab bering.

∠WYU ni toping. Qanday topganingizni tushuntiring.

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 168 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:


6 Doira va aylana

Doira va aylana elementlari

D1 1-topshiriq


1 Doira elementlarini berilgan so‘zlardan foydalanib nomlang.

aylana, markaz, radius, diametr




2 Doira (aylana) radiusini toping.

a) O – aylana markazi, AB – aylana diametri.




Radius = _____ cm

b) O – aylana markazi, CD – aylana diametri.




Radius = _____ cm

c)



Radius = _____ cm

d) ABCD – aylanaga ichki chizilgan kvadrat.




Radius = _____ cm

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 169 29/08/24 22:37


3 Har bir aylana diametrini toping.

a) OH – aylana radiusi.




Diametr = _____ cm

b) OR – aylana radiusi.




Diametr = _____ cm

c) O – aylana markazi.



Diametr = _____ cm

d) QRSP kvadrat aylanaga ichki chizilgan.



Diametr = _____ cm

4 Jadvalni to‘ldiring.

Radius	Diametr
4 cm	
9,5 cm	
	40 cm
	28,6 cm

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 170 29/08/24 22:37


Ism: Sinf: Sana:

Aylananing uzunligi

D1 2-topshiriq

1 O – aylana markazi bo‘lsa, aylana uzunligini toping. Javobni π orqali ifodalang.

Namuna




Aylana uzunligi = $2\pi r$

$= 2 \times \pi \times 8$


$= 16\pi$ cm

a)




Aylana uzunligi =

b)



Aylana uzunligi =

c)







Aylana uzunligi =

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 171 29/08/24 22:37

2 O – aylana markazi. Aylana uzunligini chamalab toping.
So‘ng aylana uzunligini kalkulyator yordamida hisoblab, javobingizni yuzdan birlar xonasigacha yaxlitlang.





Aylana uzunligi uning diametridan taqriban _____ baravar katta.

a)  	Chamalab topilgan aylana uzunligi = _____ Hisoblab topilgan aylana uzunligi = _____
b)  	Chamalab topilgan aylana uzunligi = _____ Hisoblab topilgan aylana uzunligi = _____
c)  	Chamalab topilgan aylana uzunligi = _____ Hisoblab topilgan aylana uzunligi = _____
d)  	Chamalab topilgan aylana uzunligi = _____ Hisoblab topilgan aylana uzunligi = _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 172 29/08/24 22:37





3 O – aylana markazi.

Aylana uzunligini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).

a) 	Aylana uzunligi =
b) 	Aylana uzunligi =
c) 	Aylana uzunligi =
d) 	Aylana uzunligi =

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 173 29/08/24 22:37

4 O – aylana markazi.
Aylana uzunligini toping (π = 3,14 deb oling).


a) 	Aylana uzunligi =
b) 	Aylana uzunligi =
c) 	Aylana uzunligi =
d) 	Aylana uzunligi =

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 174 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**


D1 3-topshiriq

1 Radiusi 25 cm bo‘lgan g‘ildirak 50 marta to‘liq aylandi. Bosib o‘tilgan masofani toping. Javobni metrda ifodalang (π = 3,14 deb oling).



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 175 29/08/24 22:37

2 Diametri 49 cm bo‘lgan g‘ildirak bir necha marta to‘liq aylandi va 924 cm masofani bosib o‘tdi. U necha marta to‘liq aylangan ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling)?





81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 176 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

Yarim va chorak doira perimetri



D1 4-topshiriq

1 Yarim va chorak doiraning perimetrini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).



a) 	Perimetri =
b)  28 cm	Perimetri =
c)  14 m	Perimetri =

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 177 29/08/24 22:37

2 Yarim va chorak doiraning perimetrini toping (π = 3,14 deb oling).

a)  	Perimetri =
b)  	Perimetri =


3 Yarim va chorak doiraning perimetrini toping (π = 3,141 deb oling).
Javobni yuzdan birlar xonasigacha yaxlitlang.

a) O – doiraning markazi.  	Perimetri =
b)  	Perimetri =


81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 178 29/08/24 22:37

4 Quyidagi shakllarning perimetrini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).

a) Shakl 3 ta chorak doiradan iborat. O – doiraning markazi.




b) Shakl yarim doira va chorak doiradan iborat. O – doiraning markazi.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 179 29/08/24 22:37

c) Shakl 2 ta yarim doiradan hosil qilingan. O – doiraning markazi.



d) Shakl 2 ta chorak doiradan hosil qilingan.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 180 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**


D1 5-topshiriq

1 Har bir shaklning perimetrini toping (π = 3,14 deb oling).


a)



b)




c)




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 181 29/08/24 22:37

2 Shakl 4 ta bir xil chorak doira va kvadratdan hosil qilingan. Shaklning perimetrini toping ($\pi = 3{,}14$ deb oling).



3 Shakl 2 ta yarim doiradan hosil qilingan. Shaklning perimetrini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 182 29/08/24 22:37


Ism: Sinf: Sana:

Doiraning yuzi

D1 6-topshiriq

1 O – doira markazi. Doira yuzini toping. Javobni π orqali ifodalang.

Namuna




Yuzi $= \pi r^2$


$= \pi \times 7 \times 7$

$= 49\pi \text{ cm}^2$


a)



b)




c)




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 183 29/08/24 22:37

2 O – doira markazi. Doira yuzini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).


a)




b)



3 Radiusi 4 m bo‘lgan doiraning yuzini toping (π = 3,14 deb oling).



4 Diametri 34 cm bo‘lgan doiraning yuzini toping. Javobni o‘ndan birlar xonasigacha yaxlitlang (π = 3,14 deb oling).



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 184 29/08/24 22:37


Ism: Sinf: Sana:

Yarim va chorak doira yuzi


D1 7-topshiriq

1 Yarim va chorak doiraning yuzini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).

a)




b)




2 Yarim va chorak doiraning yuzini toping ($\pi = 3{,}14$ deb oling).

a)




b)




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 185 29/08/24 22:37

3 Rasmda yarim va chorak doiralar tasvirlangan. Bo‘yalgan shaklning yuzini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).


a)



b)



4 Shakl yarim doira va 2 ta bir xil chorak doiradan hosil qilingan. Shu shaklning yuzini toping ($\pi = 3{,}14$ deb oling).



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 186 29/08/24 22:37

Ism: Sinf: Sana:

Murakkab shakllarning yuzi va perimetri


D1 8-topshiriq

1 Shakl teng yonli uchburchak va yarim doiradan hosil qilingan.

a) Shaklning perimetrini toping.

b) Shaklning yuzini toping.

Har bir javobni π orqali ifodalang.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 187 29/08/24 22:37

2 Shakl to‘g‘ri to‘rtburchak, 2 ta bir xil chorak doira va yarim doiradan hosil qilingan.

a) Shaklning perimetrini toping.

b) Shaklning yuzini toping.

($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling)




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 188 29/08/24 22:37

3 Shakl 5 ta bir xil chorak doiradan hosil qilingan.

a) Shaklning perimetrini toping.


b) Shaklning yuzini toping.

($\pi = 3{,}14$ deb oling)



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 189 29/08/24 22:37

4 Kvadrat qog‘ozdan ikkita bir xil yarim doira rasmdagidek kesib olingan. Qog‘ozning qolgan qismi perimetri va yuzini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 190 29/08/24 22:37


Ism: **Sinf:** **Sana:**

D2 9-topshiriq

1 Rasmda bir xil 4 ta chorak doira tasvirlangan. Bo‘yalgan sohaning yuzini toping ($\pi = 3{,}14$ deb oling).



2 Rasmda 3 ta yarim doira tasvirlangan. Bo‘yalgan sohaning yuzini toping ($\pi = 3{,}14$ deb oling).




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 191 29/08/24 22:37

3 Rasmda kvadratning ichidagi bitta yarim aylana va ikkita chorak aylana tasvirlangan.

a) Bo‘yalgan sohaning perimetrini toping.

b) Bo‘yalgan sohaning yuzini toping.

($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling.)




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 192 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**


D3 10-topshiriq

1 Rasmda ikkita doira tasvirlangan bo‘lib, kichigining ichiga kvadrat joylashtirilgan. Katta doiraning diametri 26 cm. Kichik doiraning diametri 12 cm. Bo‘yalgan sohaning yuzini toping (π = 3,14 deb oling).



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 193 29/08/24 22:37

2 Shaklda 3 ta yarim doira va to‘g‘ri burchakli uchburchak tasvirlangan. Bo‘yalgan sohaning yuzini toping ($\pi = 3{,}14$ deb oling).



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 194 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Amaliy topshiriq



Turli diametrli pitsalarni bir-biri bilan solishtiring.

Guruh bo‘lib ishlang.

227- va 229-betlardagi pitsalar rasmiga qarang.

Katta pitsaning diametri kichik pitsa diametridan ikki baravar katta.


a) Katta pitsaning yuzi ikkita kichik pitsa yuzlari yig‘indisiga tengmi?

b) Agar katta pitsa narxi kichik pitsa narxidan 3 baravar qimmat bo‘lsa, siz qay birini sotib olar edingiz: bitta katta pitsanimi yoki uchta kichik pitsanimi? Javobingizni tushuntiring ($\pi = 3{,}14$ deb oling).

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 195 29/08/24 22:37

Muammoli topshiriq

Rasmda radiusi 7 cm va bir-biridan 7,18 m masofada joylashgan ikkita bir xil g‘ildirak tasvirlangan. Ular bir-biriga qarab harakatlanadi. Har bir g‘ildirakning bir marta to‘liq aylanishiga 2 sekund vaqt ketadi. Agar ikkala g‘ildirak ham bir xil tezlikda aylanishni boshlasa, ular qancha vaqtdan keyin to‘qnashadi ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling)?



Masalani tushundingizmi?
Reja tuzing.
Masalani yeching.
Javobni tekshirishni unutmang.

Reja

Yechish

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 196 29/08/24 22:37


Tekshirish

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 197 29/08/24 22:37


Matematika kundaligi



To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi bilan doiraning yuzi orasida qanday bog‘liqlik bor?
Lazizbek va Abbos buni bilmoqchi. Ikkalasi ham radiusi r cm bo‘lgan bir xil doira oldi.
Lazizbek o‘zining doirasini qismlarga bo‘lib, ularni rasmda ko‘rsatilgandek joylashtirib chiqdi.



Abbos ham o‘zining doirasini qismlarga bo‘lib, ularni rasmda ko‘rsatilgandek joylashtirib chiqdi.



Kimda to‘g‘ri to‘rtburchakka yaqinroq shakl hosil bo‘lgan?
Tushuntiring.


81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 198 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**


III TAKRORLASH

Geometrik shakllardagi burchaklar

1 ABCD – parallelogramm. ∠DAB = 110° va ∠ABD = 30°. ∠CDB ni toping.




2 PQRS – romb. ∠QRS = 102°. ∠PQS ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 199 29/08/24 22:37

3 EFG – teng yonli uchburchak. EG = FG va ∠GEF = 72°. ∠HGF toping.




4 ABDE – parallelogramm, BCD – teng tomonli uchburchak. F, E, D va C nuqtalar bir to‘g‘ri chiziqda yotadi. ∠AEF ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 200 29/08/24 22:37

5 BCDA trapetsiyada BC || AD. AEF va DEC – teng yonli uchburchaklar. AE = FE = CE = DE. AD va CF to‘g‘ri chiziqlar E nuqtada kesishadi. ∠FAE = 75°. ∠BCE ni toping.



6 STUX – parallelogramm. ∠TVX = 100° va ∠TUV = 64°. ∠TWS ni toping.




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 201 29/08/24 22:37

Doira va aylana

7 Jadvalni to‘ldiring ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).


Aylana	Radiusi	Diametri	Aylana uzunligi
A	7 cm		
B		7 cm	
C	21 m		

8 Shakl ikkita bir xil chorak doira va to‘g‘ri to‘rtburchakdan hosil qilingan. Shaklning perimetrini toping ($\pi = 3{,}14$ deb oling).




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 202 29/08/24 22:37

9 Sim bukilgach, undan quyida ko‘rsatilgandek 2 ta yarim aylana va 2 ta chorak aylana hosil bo‘ldi. Simning uzunligi qancha ($\pi = 3{,}14$ deb oling)?




10 Rasmdagi to‘g‘ri to‘rtburchakning ichida 2 ta bir xil chorak doira tasvirlangan. Bo‘yalgan sohaning perimetrini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).




81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 203 29/08/24 22:37

11 Rasmdagi yarim doiraning ichida ABC uchburchak tasvirlangan. Uchburchakning balandligi 14 cm. Aylananing markazi O nuqta. Bo‘yalgan sohaning yuzini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).



12 Shakl 2 ta chorak doiradan hosil qilingan. Bo‘yalgan sohaning yuzini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 204 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Bilimingizni tekshiring

1-sinov varaqasi

A bo‘lim. Muqobil javobli topshiriqlar

To‘g‘ri javob raqami (1, 2, 3 yoki 4)ni qavs ichidagi bo‘sh joyga yozing.

1 $\frac{18j-6}{2}$ ning $j=2$ bo‘lgandagi qiymatini toping.

1) 15
2) 7
3) 6
4) 5 ( )

2 Quyidagi kasrlarni o‘sish tartibida joylashtiring.

$$\frac{5}{7},\ \frac{5}{9},\ \frac{1}{5}$$

1) $\frac{5}{7},\ \frac{1}{5},\ \frac{5}{9}$
2) $\frac{1}{5},\ \frac{5}{7},\ \frac{5}{9}$
3) $\frac{5}{9},\ \frac{1}{5},\ \frac{5}{7}$
4) $\frac{1}{5},\ \frac{5}{9},\ \frac{5}{7}$ ( )


3 Yanvar oyida Abror akaning maoshi 2 500 000 so‘m edi. Fevral oyida esa maoshi 2 000 000 so‘m bo‘ldi. Uning maoshi necha foizga kamaygan?

1) 10%
2) 20%
3) 25%
4) 50% ( )

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 205 29/08/24 22:37

4 Quyida WXYZ to‘g‘ri to‘rtburchak tasvirlangan. Bo‘yalgan uchburchakning yuzini toping.

1) 496 cm^2
2) 372 cm^2
3) 300 cm^2
4) 248 cm^2



( )

5 $30 - 4 \times 3 + 12 \div 6$ ifodaning qiymatini toping.

1) 5
2) 15
3) 20
4) 80

( )

6 Quyidagilardan qaysi biri 82×395 ifodaning eng yaxshi chamalab hisoblangan qiymati?

1) 24 000
2) 27 000
3) 32 000
4) 36 000

( )

7 Qaysi son tushirib qoldirilgan?

$150 \times 65 = 150 \times 35 + 30 \times$ ____

1) 30
2) 35
3) 65
4) 150

( )

8 Anvarning vazni Bobur vaznining $\frac{2}{3}$ qismiga teng. Boburning vazni esa Sobir vaznining $\frac{5}{6}$ qismiga teng. Anvar, Bobur va Sobirning vaznlari nisbatini toping.

1) 2 : 5 : 6
2) 4 : 6 : 5
3) 10 : 15 : 18
4) 15 : 10 : 12

( )


81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 206 29/08/24 22:37

9 6 ta karamning massasi 3,50 kg. 30 ta shunday karam massasi qancha?

1) 10,50 kg
2) 17,50 kg
3) 21,00 kg
4) 105,00 kg ( )


10 Asosi kvadrat bo‘lgan kuboid shaklidagi qutiga rasmda ko‘rsatilgandek 11 ta birlik kub joylashtirilgan. Qutini to‘ldirish uchun yana nechta birlik kub kerak?

1) 165
2) 176
3) 245
4) 473 ( )




11 Quyidagi 4 ta shakldan qaysi biri simmetrik?


1)




2)



3)



4)



( )

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 207 29/08/24 22:37

12 Jamila pulining 30 foizini yubka uchun, qolganining 60 foizini esa bir juft oyoq kiyimi uchun sarfladi. Shundan so‘ng unda dastlabki pulining necha foizi qoldi?


1) 10%
2) 28%
3) 42%
4) 58% ( )

13 12 ta ustun ketma-ket, har ikkisi orasidagi masofa bir xil qilib bir qatorga joylashtirilgan. Birinchi va to‘rtinchi ustun orasidagi masofa 42 m. Birinchi va oxirgi ustun orasidagi masofa qancha?

1) 132 m
2) 144 m
3) 154 m
4) 168 m ( )


14 Shakl ikkita bir xil yarim doiradan hosil qilingan. Har bir doiraning markazi O bilan belgilangan. Yarim doira radiusi 7 cm. Shaklning perimetrini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).

1) 44 cm
2) 51 cm
3) 58 cm
4) 65 cm ( )



15 Rasmda ABCD – parallelogramm, ABE esa teng yonli uchburchak, BA = BE. $\angle CFE = 92°$ va $\angle BEF = 40°$. $\angle CDA$ ni toping.

1) 48°
2) 52°
3) 80°
4) 88° ( )



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 208 29/08/24 22:37

B bo‘lim. Qisqa javobli topshiriqlar.
Javoblarni ko‘rsatilgan joyga yozing.

16 45 va 60 ning barcha umumiy bo‘luvchilarini yozing.

Javob: _____

17 $\frac{4}{7} \div 12$ ning qiymatini toping.

Javob: _____

18 29,04 ÷ 30 ning qiymatini toping.

Javob: _____

19 Jadvalda velosiped ijarasi narxlari ko‘rsatilgan.


Velosiped ijarasi narxlari	
Birinchi soat uchun	2,5 ming so‘m
Qo‘shimcha har yarim soat uchun	0,8 ming so‘m

Ravshan velosipedni soat 10:30 dan 13:00 gacha ijaraga olgani ma’lum.
U qancha to‘lagan?

Javob: _____


81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 209 29/08/24 22:37

20 Rasmda AB va CD – to‘g‘ri chiziqlar. $\angle a$ ni toping.



Javob: _____

21 Lazizbek va Ravshan quyida ko‘rsatilganidek Y bilan belgilangan nuqtada turishibdi. Lazizbek maktab tomonga, Ravshan esa metro stansiyasi tomonga yuzlangan.




Suzish havzasi tomonga yuzlanishi uchun har bir bola eng kamida necha gradusga burilishi kerakligini toping.

Javob: Lazizbek _____ °

Ravshan _____ °

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 210 29/08/24 22:37

22 Doira radiusi r cm ga teng. Kvadratning yuzini r orqali ifodalang.



Javob: _____ cm^2

23 Lazizbek 20 yoshda. Murodbekning yoshi Lazizbek yoshining $\frac{3}{5}$ qismini tashkil qiladi. x yildan so‘ng ularning yoshlari yig‘indisini toping. Javobingizni x orqali ifodalang.

Javob: _____

24 Kitobxonlarning $\frac{5}{8}$ qismi yoshlar bo‘lib, qolganlari katta yoshlilar. Yoshlarning $\frac{3}{10}$ qismi qizlar bo‘lib, 28 nafari o‘g‘il bolalar. Kitobxonlarning umumiy soni nechta?


Javob: _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 211 29/08/24 22:37

25 Do‘konda 40 kg no‘xat bor edi, uning $\frac{3}{8}$ qismi sotildi. Qolgan no‘xat paketlarga $\frac{4}{5}$ kg dan qadoqlandi. Qolgan no‘xat ko‘pi bilan nechta paketga qadoqlanishi mumkin?

Javob: _____


26 To‘g‘ri to‘rtburchakning o‘lchamlari 20 cm va 10 cm. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 20% ga orttirildi. Dastlabki to‘g‘ri to‘rtburchak yuzining yangi to‘g‘ri to‘rtburchak yuziga nisbatini toping.



Javob: _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 212 29/08/24 22:37


27 Diagrammada yanvar – may oylarida sotilgan futbolkalar soni ko‘rsatilgan.



Qaysi oylarda sotilgan futbolkalar soni 5 oyda sotilgan futbolkalarning o‘rtacha sonidan ko‘proq?

Javob: _____

28 Rasmda PQR va SQR to‘g‘ri burchakli uchburchaklar berilgan. $\angle RPQ = 60°$ va $\angle SRP = 23°$. $\angle PQS$ ni toping.




Javob: _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 213 29/08/24 22:37

29 Qizil va yashil qog‘ozlar soni 12 : 7 nisbatda. Sariq qog‘ozlar yashil qog‘ozlardan 15 ta kam bo‘lib, qizil qog‘ozlarning $\frac{1}{3}$ qismiga teng. Rangli qog‘ozlarning umumiy sonini toping.

Javob: _____

30 Kuboid shaklidagi idishning $\frac{1}{4}$ qismi suv bilan to‘ldirilgan. Jo‘mrak ochilgach, suv idishga minutiga 0,8 ℓ tezlik bilan tusha boshladi. Idishni suv bilan to‘ldirish uchun qancha vaqt kerak bo‘ladi?



Javob: _____ minut

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 214 29/08/24 22:37

Ism: **Sinf:** **Sana:**

2-sinov varaqasi

Quyidagi topshiriqlarning batafsil yechimini keltiring va javobni ko‘rsatilgan joyga yozing.


1 Novvoyxonadan non sotib olgan mijozning har 150 000 so‘mlik xaridiga yana 2 ta non bepul beriladi. Hamid aka 26 ta bepul non oldi. U qancha pul sarflagan?

Javob: _____

2 To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 14 cm bo‘lib, perimetri $3y$ cm ga teng. To‘g‘ri to‘rtburchakning enini y orqali ifodalang.

Javob: _____ cm

3 To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi katta qog‘ozning o‘lchamlari 30 cm va 20 cm. Qog‘ozdan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi 3 ta bo‘lak kesib olindi. Qog‘ozning qolgan bo‘lagi perimetrini toping.



Javob: _____ cm

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 215 29/08/24 22:37

4 Savdo do‘koni 15% chegirma taklif qildi. Muhabbat do‘kondan chegirma asosida 25 500 so‘mga sumka sotib oldi. Sumkaning chegirmasiz narxi qancha bo‘lgan?

Javob: _____

5 Lobarda qizil, ko‘k va yashil rangli tugmalar bor. Tugmalarning $\frac{2}{5}$ qismi qizil rangda. Ko‘k rangli tugmalar sonining yashil rangli tugmalar soniga nisbati 1 : 5. Tugmalarning necha foizi yashil rangda?

Javob: _____ %

6 Novvoyda $4\frac{1}{4}$ kg un bor edi. U non pishirish uchun $2\frac{5}{8}$ kg un ishlatdi. Keyin esa yana $3\frac{2}{5}$ kg un sotib oldi. Natijada novvoyda qancha un bo‘ldi? Javobni aralash son shaklida yozing.

Javob: _____ kg

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 216 29/08/24 22:37

7 Dastlab Jonibek va Alibekda sonlari nisbati 9 : 4 bo‘lgan bir nechta stiker bor edi. Jonibek Alibekka 20 ta stiker bergach, ulardagi stikerlar miqdori teng bo‘lib qoldi. Jonibekda dastlab nechta stiker bo‘lgan?

Javob: _____

8 Jadvalda sinfdagi 40 ta o‘quvchining har biri o‘qigan kitoblar soni ko‘rsatilgan. Har bir o‘quvchi o‘rtacha 7 ta kitob o‘qidi. Jadvalning sonlardan biri yozilgan qismi tasodifan yirtilib qoldi. Bu qanday son?

Har bir o‘quvchi o‘qigan kitoblar soni	0	6	
O‘quvchilar soni	15	12	13

Javob: _____


81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 217 29/08/24 22:37

9 Idishning $\frac{5}{8}$ qismi qum bilan to‘ldirilganda uning massasi 1,05 kg bo‘ldi. Idish to‘liq to‘ldirilganda esa 1,26 kg bo‘ladi. Idishning massasini toping.

Javob: _____ kg

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 218 29/08/24 22:37

10 Quyidagi naqshni hosil qilish uchun bir xil kvadrat plitkalar ishlatiladi.



1-shakl
2 ta plitka

2-shakl
8 ta plitka

3-shakl
18 ta plitka


4-shakl
32 ta plitka

Agar naqsh davom ettirilsa, nechanchi shaklda 98 ta plitka bo‘ladi?

Javob: _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 219 29/08/24 22:37


11 Shaklda ADEF va CDEG trapetsiyalar tasvirlangan. Bunda AD || FE va CD || GE bo‘lib, ∠GEF = 40°, ∠GAB, ∠BCD, ∠EGB va ∠EFG – to‘g‘ri burchaklar. ∠CDB ni toping.



Javob: _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 220 29/08/24 22:37


12 Shaklda kesishgan ikkita doira tasvirlangan. X doiraning $\frac{2}{5}$ qismi, Y doiraning esa $\frac{4}{7}$ qismi bo‘yalgan. Shaklning bo‘yalgan qismi yuzining umumiy yuziga nisbatini toping.



Javob: _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 221 29/08/24 22:37

13 Chiziqli diagrammada bo‘sh plastik idishning massasi va bu plastik idishga 4 ta: A, B, C va D buyumlar birin-ketin solingandagi massasi ko‘rsatilgan.



a) Bo‘sh plastik idishning massasi qancha?
b) Qaysi buyumlar plastik idishdan og‘ir?
c) A, B, C va D buyumlar massasining o‘rtacha qiymatini toping.

Javob: a) _____ g

b) _____


c) _____ g

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 222 29/08/24 22:37

14 Rasmda 5 ta bir xil kubdan tashkil topgan jism tasvirlangan.
Har bir kubning qirrasi 5 cm dan.

a) Jismning hajmini toping.

b) Jism ko‘k bo‘yoq bilan to‘ldirilgan chelakka to‘liq botirildi.
Jismning ko‘k rangga bo‘yalgan sirti yuzini toping.




Javob: a) _____ cm^3

b) _____ cm^2

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 223 29/08/24 22:37

15 Rasmda O – doiraning markazi. Doiraning AB diametri 14 cm bo‘lib, PQRS kvadratning tomonlari uzunligi bilan bir xil. Bo‘yalgan sohaning yuzini toping ($\pi = \frac{22}{7}$ deb oling).



Javob: _____ cm^2

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 224 29/08/24 22:37

16 Lobar pulining 40 foizini sumka sotib olishga, qolgan pulning 80 foizini esa kiyim sotib olishga sarflagan. Shundan so‘ng u ovqatlanishga 12 000 so‘m sarfladi va unda 6000 so‘m pul qoldi.

a) U kiyim uchun necha so‘m sarflagan?

b) Dastlab uning qancha puli bo‘lgan?

Javob: a) _____

b) _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 225 29/08/24 22:37

17 A va B zalda bir nechta o‘quvchi bor edi. Agar A zaldan B zalga 14 nafar o‘quvchi o‘tsa, ikkala zaldagi o‘quvchilar soni teng bo‘ladi. Agar B zaldan A zalga 4 nafar o‘quvchi o‘tsa, A zaldagi o‘quvchilar sonining B zaldagi o‘quvchilar soniga nisbati 8 : 5 bo‘ladi. B zalda necha nafar o‘quvchi bor?

Javob: _____

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 226 29/08/24 22:37

Ilovalar





81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 227 29/08/24 22:37

81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 228 29/08/24 22:37

Ilovalar



81 MATEMATICS WORKBOOK G6 P1 UZB 220x290 236PG.indd 229 29/08/24 22:37